

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**



**“Soliq hisoboti” fanidan
(1-2-semestr uchun)
ma’ruzalar matni**

Bilim sohasi:	400000	-	Biznes, boshqaruv va huquq
Ta’lim sohasi:	410000	-	Biznes va boshqaruv
Ta’lim yo‘nalishi:	70410101	-	Buxgalteriya hisobi (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
	70410102	-	Audit (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)

Qarshi-2023 y

Fanning amaliy mashg'ulot bo'yicha ishlanmasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti 2022 yil 29 avgustdagi №-310 son bilan ro'yxatga olingan fan dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

Jumayeva G.J.- *“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi dotsenti*

Taqrizchilar:

Qurbonov A.B.

QarMII “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi.

Butunov Sh.B.

“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi katta o'qituvchisi

Fanning ma'ruzalar matni Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasining 2022 yil “ 7 ” noyabrdagi 6 -sonli yig'ilishida hamda “Iqtisodiyot” fakulteti Uslubiy Komissiyasining va 2022 yil “ 19” noyabrdagi 4 -sonli yig'ilishida muhokama qilib tasdiqlangan.

“Iqtisodiyot” fakulteti
Uslubiy komissiya raisi:

A.Qurbonov

Kafedra mudiri

A.Alikulov

Mavzu: SOLIQ HISOBINING OB'EKTI VA PREDMETI

- 1. «Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobi» fanining predmeti va metodi**
- 2. Soliq hisobi siyosatining mohiyati.**
- 3. Soliq hisobining predmeti va ob'ektlari.**

Islohotlarni amalga oshirishning bugungi bosqichida iqtisodiy qonunlarga amal qiluvchi tadbirkorlik sub'ektlarini rag'batlantirish yo'llaridan biri sifatida soliq yukini kamaytirish, soliqlarni unifikatsiya qilish tadbirlarini misol qilib keltirish mumkin.

Soliqlar va soliqqa tortish yo'nalishidagi mutaxassislar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan soliq islohotlarining ma'no -mohiyatini anglashi, iqtisodiy bilimlarga ega bo'lishi bilan bir qatorda, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning byudjet oldidagi qarz majburiyatlarining hisobini yuritish tartiblarini, soliqlar va boshqa majburiy ajratmalar hisob-kitoblarini hamda hisobotlarini tuzish ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur.

Bu ko'nikmalarga ega bo'lishda «Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobi» fanini o'rganish alohida ahamiya kasb etadi.

Islohotlarni chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining tarkibiy qismi bo'lgan «Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobi» fani shakllanib, rivojlanib boradi. Ya'ni «Moliyaviy hisob», «Boshqaruv hisobi» fanlari kabi «Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobi» fani ham alohida fan sifatida o'zining predmeti va metodiga, maqsadi va vazifasiga egadir.

«Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobi» fanining maqsadi bo'lib, soliq hisobini tashkil etishning va yuritishning nazariy masalalarini o'rganish, amaliy bilimlar va ko'nikmalarga ega bo'lish va shu bilan birga korxonalarining soliqqa tortish tizimi to'g'risida bilimlarni tizimga solish va O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga moslashtirilgan soliq hisobotini tuzishdan iboratdir. Shu bilan birga, talabalarga soliq siyosati kontseptsiyasini chuqur o'rgatish va amaliyotda qo'llashga kerak bo'ladigan bilimlarni shakllantirish – fan vazifalari hisoblanadi.

«Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobi» fanining predmeti bo'lib – soliqlar va majburiy to'lovlarni hisoblash, byudjetga to'lash, ularni hisob registrlarida aks ettirish. hisobot tuzishning nazariy-uslubiy tashkiliy asoslarini yoritish hisoblanadi.

Talaba bilishi kerak: Bu fanni o'rganishda quyidagilarni bilishlari zarur.

- soliq hisobini yuritishning va tashkil etishning me'yoriy-huquqiy tartibga solish asoslarini;

- soliq hisobini tashkil etish tizimlarini;
- soliq hisobi ob'ektlari to'g'risida soliq qonunchiligi terminologiyasini;
- soliq hisobini yuritishning metodik usullarini;
- buxgalteriya va soliq hisobini taqqoslash qo'rsatkichlarini (tavsifini);
- buxgalteriya va soliq hisobining Soliq kodeksiga muvofiq aloqasini;
- soliq hisobi ob'ektlarini, metodlarini va tamoyillarini;
- soliqqa tortish maqsadida daromadlar va xarajatlarni turkumlanishini;
- soliq bazasini shakllantirish tartibini va soliqlar hisob-kitobini;
- daromad (foyda), qo'shilgan qiymat va boshqa soliqlar hisobini yuritish tartibini;
- soliq hisobotini tuzish va taqdim etish tartibini;

Talaba quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim:

- soliqqa tortish maqsadida hisob siyosatini tuzish;
- soliqqa tortish maqsadida buxgalteriya hisobi registrlarini yuritish;
- soliq hisobini analitik registrlarida yuritish;

- soliq hisobini yuritish maqsadida tegishli hisob-kitoblarni amalga oshirishni;
- yagona schetlar rejasidan foydalanish sharoitida buxgalteriya yozuvlarini tuzish;
- soliq hisobot shakllarini (hisob-kitoblar va deklaratsiyalarni) tuzish.

O'zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonun va buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida soliq hisobi fani o'rganiladi. Fanning asosiy maqsadlari:

- soliq hisobi, uning mohiyati va maqsadini o'rganish;
- soliq hisobining predmeti va metodining elementlarini o'rganish;
- buxgalteriya balansini va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotni o'rganish;
- schyotlar tizimi va ularda soliqlar hisobi muammolarini aks ettirish tartibini o'rganish;

«Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobi»ni fan sifatida uning nazariy asoslarini, axborotlarni to'plash, qayta ishlash va foydalanish metodlarini rivojlantirish nazariyasi tasavvurlarini shakllantirish.

Mazkur fanni chuqur o'rganish natijasida har bir talaba soliq hisobining iqtisodiy axborot tizimi va xo'jalikni boshqarishdagi o'rni, hisobning asosiy tamoyillari, ularning o'zaro bog'liqligi, hisob metodlarini amaliyotda qanday qo'llanishini, soliq bazasining shakllanishini chuqur tushunib etishi zarur.

Ushbu fan «Iqtisodiyot asoslari», «Moliya», «Mikro va makroiqtisodiyot», «Pul muomalasi va kredit», «Marketing va menejment asoslari», «Soliq huquqi asoslari», «Soliq tizimi asoslari», «Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish», «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish», «Xorijiy shaxslarni soliqqa tortish», «Audit», «Iqtisodiy tahlil», «Statistika», «Buxgalteriya hisobi asoslari», «Moliyaviy hisob», «Boshqaruv hisobi» kabi fanlar bilan bevosita bog'liq.

4. Soliq hisobi siyosatining mohiyati.

Hisob siyosatini o'rganishda asosan maqsad uning mohiyatini ochish, soliq hisobi siyosatini ishlab chiqish hamda uni metodik jihati to'g'risida bilimga ega bo'lish.

Respublikamizda qabul qilingan huquqiy-me'yoriy hujjatlarda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar hisobni, shu jumladan soliq hisobini yuritishni tashkil qilish maqsadida «hisob siyosati»ni ishlab chiqish va tasdiqlash ko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunida hisob siyosati o'z aksini topmagan. O'zbekiston Respublikasi 1-sonli buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS)da hisob siyosatiga quyidagicha ta'rif berilgan: «hisob yuritish siyosati deganda, xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbari tomonidan buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzish asoslari va qoidalariga mos ravishda usullarining qo'llanilishi tushuniladi».

Buxgalteriya hisobining metodologiyasi bilan bog'liq muammolar doimo dolzarb bo'lib kelgan. Shuning uchun ham uning tarkibiy qismi bo'lgan soliq hisobi metodologiyasini o'rganishimiz zarur.

Soliq hisobi metodologiyasi quyidagilardan tashkil topadi:

1. Soliq hisobi siyosatini ishlab chiqish va tasdiqlash.
2. Soliqqa tortish maqsadida soliq hisobida aks ettiruvchi hisob – soliq ko'rsatkichlarini shakllantirish. Masalan, soliq hisobi registrlari asosida foyda solig'i bo'yicha soliqqa tortiladigan bazani aniqlash.
3. Soliqqa tortiladigan bazani shakllantirish maqsadida soliq hisobi metodini aniqlash.


4. Umumqabul qilingan tamoyillari yo'riqnomalarni soliqqa tortish maqsadiga yo'naltirishning interpretatsiyasi. Buning asosiy mazmuni shundan iboratki, bu metod soliq hisobining fiksal funktsiyasini amalga oshiradi.

5. Soliq hisobi registrlari va soliqlar bo'yicha hisob-kitob hamda boshqa soliq hujjatlar shaklini belgilash. Maxsus registrlar, hisob-kitoblar va soliq hujjatlarni yuritish soliq hisobi metodologiyasining texnik usullari bo'lib hisoblanadi.

Soliq hisobining registrlari: hisob-kitoblar, registrlardan iborat bo'ladi. Soliq hisobi schyotlar rejasi va ishchi rejani ishlab chiqish hamda tasdiqlash.

Buxgalteriya hisobi turlari moliyaviy, boshqaruv va soliq hisoblari bo'lgani singari hisob siyosati shu turlarga mos ravishda ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Shuni hisobga olgan holda hisob siyosatini umumiy tarkibiy qismini quyidagi 3.1- rasmda keltirilgan.

Respublikamizda chop etilgan me'yoriy hujjatlar va adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, bularda «Soliq hisobi siyosati» yoki «Soliqqa tortish maqsadi uchun hisob siyosati» tushunchalari o'z aksini topmagan.



Shundan kelib chiqqan holda «Soliq hisobi siyosati»ning mohiyatini ochishga hamda bu tushunchaga ta'rif berishga harakat qilamiz.

Rossiya Federatsiyasida «Soliqqa tortish maqsadi uchun hisob siyosati» tushunchasi Soliq kodeksining 21-bobi «Qo'shilgan qiymat solig'i»ni qo'llash bilan paydo bo'lgan va Soliq kodeksining 25-bobi «Foydadan soliq»ning 254, 261, 267, 307, 313, 314-moddalari bilan yanada mustahkamlangan. Biroq, bu huquqiy qonuniy hujjatlarda ham soliqqa tortish maqsadi uchun hisob siyosatiga ta'rif berilmagan. O'rganilgan chet el adabiyotlari tahlili shuni ko'rsatdiki, juda ko'p iqtisodchilar soliqqa tortish maqsadi uchun hisob siyosatini «soliq hisobini yuritishning korxonadan tanlangan usullar majmuasi» deb e'tirof etishgan. Jumladan, A.V.Brizgalin, V.R.Bernik A.N.Golovkin, E.V.Demeshovalar quyidagicha ta'rif berishgan: «Soliqqa tortish maqsadi uchun hisob siyosati deganda korxonaning soliq hisobini yuritish, soliq va yig'implarni hisoblash qoidalarini tanlangan usullar majmuasi tushuniladi». Bundan ko'rinib turibdiki,

korxonalar soliq hisobini yuritishning metodologiyasini o'zi tanlashi, tanlangan usullar ma'lum bir hujjat bilan mustahkamlanishi kerak.

L.B.Sidelnikova va E.N.Nazaryanlar o'zlarining qo'llanmasida quyidagilarni qayd etganlar: «Rossiya Federatsiyasi soliq kodeksining 25-bobini amal qilishi bilan «soliq hisobi» tushunchasi paydo bo'ldi va «soliqqa tortish maqsadi uchun hisob siyosati» atamasi huquqiy mustahkamlandi. Bu bilan bog'liq holda korxonalar ikkita alohida buxgalteriya va soliq hisobi siyosatlarini tasdiqlash zarurati tug'ildi». Ushbu mualliflar tomonidan soliq hisobi siyosatiga ta'rif bermasalarda, buxgalteriya (moliyaviy) va soliq hisobi siyosatlarining asosiy elementlari qiyosiy tahlil qilingan.

M.L.Pyatovanning qarashicha: «Soliqqa tortish maqsadi uchun hisob siyosati deganda soliq to'lovchiga soliq qonunchiligi tomonidan berilgan kompleks imkoniyatlardan amalga oshirilgan xo'jalik operatsiyalarini soliqqa tortish rejimlaridan birini tanlash tushuniladi». Bu fikr bilan biz to'liq qo'shilisha olmaymiz. Chunki, hisob siyosatini shakllantirish va faqat soliq qonunchiligi tomonidan berilgan imkoniyatlardan biri tanlanmaydi, balki soliq hisobini yuritish va soliq hisobini tuzishda qo'llaniladigan usullar va metodlar tanlanadi.

S.Yu.Matveev soliq hisobi siyosatiga quyidagicha ta'rif bergan: «Korxonaning soliq hisobi siyosati deganda soliq hisobini yuritish maqsadida foyda solig'ini aniqlash uchun xo'jalik faoliyatida ro'y bergan hodisalarni boshlang'ich kuzatish, ularni tan olish va qiymatda o'lchash, guruhlashtirish va umumlashtirish usullarining qabul qilingan majmuasi tushuniladi». S.Yu. Matveevning bergan ta'rif oldingilarga nisbatan keng va to'liqroq deyish mumkin. Biroq, xo'jalik yurituvchi sub'ekt faqat foydadan soliq bazasini aniqlash va uning soliq hisobini yuritish uchun hisob siyosatini ishlab chiqmaydi. Chunki, xo'jalik yurituvchi sub'ekt byudjetga boshqa soliqlar va majburiy to'lovlar to'lashi ham mumkin.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, olimlar o'rtasida soliq hisobi siyosatiga ta'rif berishda ham fikrlar va terminologiya xilma-xil. Bizning fikrimizcha, «Soliqqa tortish maqsadi uchun hisob siyosati» tushunchasi o'rniga «Soliq hisobi siyosati» tushunchasini qo'llash maqsadga muvofiq. Shundan kelib chiqqan holda soliq hisobi siyosatiga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

«Soliq hisobi siyosati – bu xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan soliq hisobini yuritish va soliq hisobotini tuzish uchun tanlangan qoida va usullar majmuasidir».

Soliq hisobi siyosati xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun ichki me'yoriy hujjat bo'lib hisoblanadi. Soliq hisobi siyosatini ishlab chiqishda quyidagi omillarni hisobga olish kerak:

- mulk shaklini;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyat turi;
- soliqqa tortish tizimi va to'lanadigan soliq turlari;
- korxonaning moddiy texnik bazasini;
- hisob xodimlarining malakasi va bilim saviyasini.

S.Yu.Matveev soliq hisobi siyosatini shakllantirishda quyidagilar bo'lishini e'tirof etgan:

- soliq hisobining yagona schyotlar rejasi;
- yagona registrlar tizimi;
- axborotlarni yig'ish va nazorat qilishning yagona avtomatlashtirilgan tizimi;
- yagona dasturiy ta'minoti.

1. Soliq hisobining predmeti va ob'ektlari.

Soliq hisobining predmeti va ob'ektiga ta'rif berishda umumqabul qilingan buxgalteriya hisobining predmeti va ob'ektini evolyutsiyaviy rivojlanish tarixidan kelib chiqishi kerak.

Biz tomonimizdan o'rganilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, buxgalteriya hisobi predmeti ta'rifining aniq kontseptual chegarasi yo'q. Masalan, Ispan olimi Diego del Kastillo buxgalteriya hisobi predmeti deb shartnomani ko'zda tutgan bo'lsa, italyan olimi K.Bellini buxgalteriya hisobining predmeti deb, xo'jalik jarayonlarini hisoblagan bo'lsa, I.F.Sher esa buxgalteriya hisobining predmeti deb, ro'y bergan ichki va tashqi xo'jalik, yuridik holatlarni tan olgan.¹ Rus buxgalteri K.I.Arnold – «buxgalteriyaning yagona predmeti – kapitalning aniq va ishonchli o'zgarishi» deb e'tirof etgan².

Masalan, V.Ya.Kojinov «Buxgalteriya hisobining predmeti – korxonalar yoki jismoniy shaxslarning xo'jalik faoliyati»³ deb umumiy, munozarali ta'rifini bersa, L.B.Sidelnikova «Bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya hisobining predmeti bo'lib, individual kapitalning aylanishi hisoblanadi» deb e'tirof etgan.

K.B.Urazov o'zining «Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining kontseptual masalalari» nomli monografiyasida buxgalteriya hisobi predmetiga quyidagicha ta'riflar bergan:

Buxgalteriya hisobining predmeti bo'lib turli mulk shaklidagi iqtisodiy sub'ektlarning umumxo'jalik faoliyatini tashkil qiluvchi jarayonlar, operatsiyalar va ularning natijalari, shuningdek ushbu faoliyatni uzluksiz yuritilishini ta'minlovchi aktivlar va ularning shakllanish manbalarining holati va harakati hisoblanadi⁴.

Endi buxgalteriya hisobining tarkibiy qismi bo'lgan soliq hisobining predmeti to'g'risida fikr yuritsak. Ushbu masala ham dolzarb bo'lib kelgan va uning predmetiga nazariy jihatdan ta'rif berilmagan.

Masalan, Rossiya Federatsiyasi soliq kodeksining 25-bobida soliq hisobi, soliq hisobining maqsadi, ob'ektlari, registrlari, schyotlar rejasi va soliq hisobining asosiy tamoyillari haqida tushunchalar berilgan bo'lsada, soliq hisobining predmeti to'g'risida hech narsa yozilmagan.

I.V.Kalnitskayaning yozishicha «Soliq hisobining predmeti – umumlashgan holda korxonaning ishlab chiqarish va ishlab chiqarish bo'lmagan faoliyati bo'lib, buning natijasida soliq to'lovchilarning soliqni hisoblash va to'lash bo'yicha majburiyati, ya'ni soliqqa tortishning ob'ektlari kelib chiqadi».

V.Ya.Kojinovning e'tirof etishicha, «To'liq ajralgan soliq hisobining predmeti bo'lib, korxonalar yoki jismoniy shaxslarning xo'jalik faoliyati hisoblanadi. Bunda ham buxgalteriya hisobidek xo'jalik mablag'lari aks ettiriladi».

Soliq hisobining predmeti deganda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va tadbirkorlarning xo'jalik faoliyatini yuritish asosida soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha kelib chiqadigan majburiyatlarni hisoblash, to'lash va tahlil qilish tushuniladi.

¹ Sokolov Ya.V. Buxgalterskiy uchets: ot istokov do nashchix dney. – M. : Audit, YuNITI, 1999, s. 153.

² Sokolov Ya.V., Sokolov V.Ya. Istoriya buxgalterskogo ucheta:Uchebnik.-M.:Finansi i statistika,2005,s.122.

³ Kajinov V.Ya. Buxgalterinskiy i nalogoviy uchets: upravleniya pribilyu. – M.: Ekzamen, 2005, s. 22

⁴ Urazov K.B. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining kontseptual masalalari. Toshkent. Fan. 2005. 68-b.

Bu ta'rifdan ko'rinib turibdiki, buxgalteriya hisobining predmeti soliq hisobi predmetiga nisbatan keng tushuncha bo'lib, soliq hisobi buxgalteriya hisobi predmetining tarkibiga kiradi va uning mohiyatini yanada aniqlashtiradi.

Soliq hisobi o'zining sub'ekti va ob'ektiga ega.

Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksining 25-bobi 246- va 346-moddalariga asosan soliq hisobining sub'ektlariga quyidagilar kiritilgan:

- yuridik shaxslar shu jumladan kichik korxonalar;
- xorijiy kompaniyalar va qo'shma korxonalar;
- yakka tartibda faoliyat ko'rsatadigan tadbirkorlar²⁸.

Shunday kelib chiqqan holda, bizning fikrimizcha, soliq hisobining sub'ekti bo'lib soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Soliq hisobining ob'ektlarini aniqlashda bevosita buxgalteriya hisobining ob'ektiga murojaat qilishimiz kerak. Chunki buxgalteriya hisobining ob'ektlari moliyaviy, boshqaruv va soliq hisoblari ob'ektining asosi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunning 4-moddasida «Buxgalteriya hisobi ob'ektlari. Asosiy va joriy aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, zahiralar, daromadlar va xarajatlar, foyda, zararlar hamda ularning harakati bilan bog'liq bo'lgan xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining ob'ektlaridir»²⁹ deb ko'rsatilgan bo'lib, ob'ektga ta'rif berilmagan.

Shuni qayd etishimiz kerakki, «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunni qabul qilinganiga 10 yildan oshdi, bu davrda buxgalteriya hisobining nazariy va metodologik kontseptsiyalarida tegishli o'zgarishlar ro'y berdi. Buxgalteriya hisobining tarkibiy qismi bo'lgan «Soliq hisobi» paydo bo'ldi. Bularning barchasi O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunga tegishli o'zgartirishlar kiritishni talab qilmoqda. Xuddi shu jarayonda buxgalteriya hisobi ob'ektlarini yanada aniqlashtirish hamda moddalar mazmunini tahririy jihatdan qayta ko'rib chiqish zarur bo'ladi.

Soliq hisobi ob'ektlarini aniqlash uchun yana me'yoriy hujjatlarga va iqtisodiy adabiyotlarga murojaat qilamiz.

Rossiya Federatsiyasi soliqlar va yig'imlar vazirligining 2002 yil 26 fevraldagi buyrug'i bilan tasdiqlangan (BP-3-02/98) Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksining 2-qismi «Korxonada foydasidan soliq» 25-bobini qo'llash bo'yicha uslubiy tavsiyasida soliq hisobi ob'ekti quyidagicha yozilgan:

«Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksining 25-bobini qo'llash maqsadida soliq hisobi ob'ekti deganda, hisobot davrida hisoblangan, daromad to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida aks ettiruvchi ko'rsatkichlarning shakllanishi, shuningdek hisobot davrida hisoblangan va tan olingan xarajatlar tarkibiga kiruvchi kelgusi davr xarajatlari, mulklardan amortizatsiya qiymatlari va hokazo xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar tushuniladi»³⁰.

N.A.Travkina soliq hisobining ob'ekti deb «tovar (ish, xizmat)larni sotish operatsiyalari, sotilgan tovarlar qiymati;

- foyda, daromadlar, xarajatlar;
- «korxonada mulklari»ni hisoblaydi³².

²⁸ Glava 25 nalogovogo kodeksa RF.-M.: Vershchina. 2005, s. 7.

²⁹ O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni.-Toshkent: 30.08.1996.

³⁰ Metodicheskie rekomendatsii po primeneniyu glava 25 «Nalog na pribil organizatsiy» chasti vtoroy Nalogovogo kodeksa statya -313.-Rossiya Federatsiyasi. 26.02.2002.

³² Travkina N.A.Buxgalterskiy uchet i nalogoviy uchet : sostoyanie i puti razvitiya. – M.: Kompaniya Sputnik. 2004, s. 13.


- I.V.Kalnitskaya soliq hisobining ob'ektlariga quyidagilarni kiritgan:
- «- tovarlar (ish, xizmat)ni sotish operatsiyalari;
 - yuridik va jismoniy shaxslar mulki;
 - foyda;
 - daromad;
 - sotilgan tovarlar (bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar) qiymati;
 - Soliq kodeksi bilan belgilangan boshqa ob'ektlar»³³.

E'tirof etilganlardan ko'rinib turibdiki, buxgalteriya hisobi metodologiyasida hisobning predmeti va ob'ekti kategoriyalariga bir xil ta'rif berilmagan, hisob ob'ektlarining ilmiy asoslangan tasnifi berish oxiriga etkazilgan emas. Bularning barchasi hisob ob'ektining nazariy kontseptsiyasiga keng ma'nodagi qarashlar bilan birga, ularning har xilligidan dalolat beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, soliq hisobining ob'ektiga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

«Korxonalarda ro'y bergan xo'jalik operatsiyalar, aktivlar, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha majburiyatlar, daromadlar, xarajatlar va foyda soliq hisobining ob'ektlaridir».

Buni quyidagi sxema tarzida 2.1-rasmda aks ettirildi.



2.1-rasm Soliq hisobining ob'ektlari.

³³ Kalnitskaya I.V. «Buxgalterskiy uchet i nologooblajenie: problemi vzaimodeystviya». Dessertatsiya na soiskanie stepeni k.e.n. – SPB, 2001, s. 64.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR.

1. Hisob siyosati nima?
2. Soliq hisobi siyosati.
3. Soliq hisobi siyosatida nimalar o‘z aksini topadi?
4. Soliqlar bo‘yicha byudjet bilan hisob-kitoblar qaysi schyotlarda hisobga olib boriladi?
 1. Buxgalteriya hisobining me‘yoriy-huquqiy asoslarini ayting.
 2. Soliq siyosatini takomillashuvi buxgalteriya hisobiga qanday ta‘sir ko‘rsatgan?
 3. Soliq hisobi deganda nimani tushunasiz?
 4. Soliq hisobining maqsadi nimadan iborat?
 5. Soliq hisobining vazifalari.
 6. «Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar hisobi» fanining predmeti.
 7. Moliyaviy va soliq hisobining o‘zaro bog‘liqligi.
 8. Buxgalteriya hisobining qanday modellari mavjud?
 9. Soliq hisobi qaysi mamlakatda rivojlangan?
 10. Soliq hisobi ma‘lumotidan foydalanuvchilar.
 11. Buxgalteriya hisobining predmeti.
 12. Soliq hisobining predmeti.
 13. Buxgalteriya hisobining ob‘ekti nimadan iborat?
 14. Soliq hisobining ob‘ekti nimadan iborat?

Mavzu: SOLIQ HISOBINI TAMOYILLARI VA METODI

REJA.

1. Soliq hisobining tamoyillari va metodi.
2. Soliq hisobining registrlari.

1. Soliq hisobining tamoyillari va metodi.

Hisob nazariyasida uning tamoyillari muhim o‘rin egallaydi. Chunki tamoyillar hisob metodologiyasining asosi va negizi bo‘lib hisoblanadi. Buxgalteriya hisobi metodologiyasining asosiy maqsadi ham umumiy hisob tamoyillarini ishlab chiqishdir. Bu hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida yana dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Keyingi paytda buxgalteriya hisobi tamoyillarining nazariy masalalariga me‘yoriy hujjatlarda alohida e‘tibor berilmoqda. Lekin, soliq hisobi tamoyillari adabiyotlarda yoritilmagan va kam tadqiqot qilingan nazariy masala bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun ham soliq hisobining tamoyillariga to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Buxgalteriya hisobining tamoyillari soliq hisobi uchun ham umumiy tamoyillar bo‘lib, ularga asoslangandir. Shuning uchun ham buxgalteriya hisobining tamoyillarini eslatib o‘tishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

«Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonunning 6-moddasida quyidagi tamoyillar aks ettirilgan: «Buxgalteriya hisobining asosiy qoidalari quyidagilardir:

- buxgalteriya hisobini ikki yoqlama yozuv usulida yuritish;
- uzluksizlik;
- xo‘jalik operatsiyalari, aktivlar va passivlarning pulda baholanishi;
- aniqlik;
- hisoblash;
- istiqbolni ko‘ra bilish (ehtiyotkorlik);

- mazmunning shakldan ustunligi;
- ko‘rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi;
- moliyaviy hisobotning betarafliigi;
- hisobot davri daromadlari va xarajatlarining muvofiqliigi;
- aktivlar va majburiyatlarining baholanishi».

«Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etishning kontseptual (tamoyil) asoslari» O-BHMS da quyidagi tamoyillar keltirilgan:

«Tamoyillar:

- hisoblash;
- ikki yoqlama qayd etish usuli bilan hisob yuritish;
- uzluksizlik;
- xo‘jalik muomalalari, aktivlar va passivlarni baholash;
- ishonchlilik;
- ehtiyotkorlik (konservatizm);
- mazmunni shakldan ustunligi;
- ko‘rsatkichlarning qiyosiyligi;
- betaraflik;
- hisobot davri daromadlari bilan xarajatlarining muvofiqliigi;
- aktivlar va majburiyatlarining haqiqiy bahosi;
- tushunarlilik;
- ahamiyatlilik;
- muhimlilik;
- haqqoniy va xolis taqdim;
- tugallanganlik;
- izchillik;
- o‘z vaqtida taqdim etish».

Tamoyilar yig‘indisi hisob kontseptsiyasini tashkil qiladi. Shunga asoslangan holda soliq hisobi kontseptsiyasiga ta‘rif beramiz. Soliq hisobining kontseptsiyasi – soliq hisobini yuritish va soliq hisobotini tuzishning asosiy nazariy tamoyillarining majmuasidir. Bu ta‘rifdan ko‘rinib turibdiki, kontseptsiya elementlari bo‘lib soliq hisobining tamoyillari hisoblanadi.

Har qanday hisob turi yoki hisobning quyi tizimidek, soliq hisobining ham o‘ziga xos bo‘lgan tamoyillari mavjud. Soliq hisobining tamoyillari to‘g‘risida ham olimlar turli fikrlarni bildirishgan va tamoyillar mazmun va son jihatidan ham farq qiladi. Masalan, V.Ya.Kojinov: «Agar soliq hisobi axborot konturida mustaqil quyi tizim turi sifatida shakllangan bo‘lsa, umumiy tamoyillardan tashqari, u o‘zining maxsus tamoyillariga asoslangan bo‘lishi kerak», degan fikrni bildirib, soliq hisobining quyidagi tamoyillarini sanab o‘tadi va qisqacha har bir tamoyilga tushuntirish berib ketadi:

- alohidalik (avtonomiya) tamoyili;
- universallik tamoyili;
- nazorat kiluvchanlik tamoyili;
- komplekslilik tamoyili;
- globallilik tamoyili.

E.V.Kreynina ham o‘zining tadqiqotlarida soliq hisobining quyidagi tamoyillarini qayd etgan:

- o‘ziga xoslik tamoyili;
- qonunlar bilan mustahkamlanganlik tamoyili;
- doimiylik tamoyili.

I.V.Kalnitskaya o'zining ilmiy-tadqiqotlariga asoslanib, soliq hisobi tamoyillari tarkibiga quyidagilarni kiritgan:

- o'ziga xoslik (isklyuchitelnost);
- soliq bo'yicha majburiyatlarni tan olish;
- ob'ektivlik;
- muvofiqlik;
- bo'linganlik;
- bajaruvchanlik;
- soliq kalendarini yuritish va rioya qilish;
- ketma-ketlik.

K.A.Ivanov soliq hisobining tamoyillariga quyidagilarni kiritgan:

- korxonalar mulkining yaxlitligi;
- davriylilik;
- pulda o'lchash;
- qo'llashning ketma-ketligi;
- uzliksizlik;
- hisoblash;
- daromadlar va xarajatlarning muvofiqligi;
- hujjatlar bilan tasdiqlanganlik.

Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksi 25-bobining 246, 285, 274, 313, 314, 271, 272-moddalarida ham soliq hisobining yuqorida e'tirof etilgan tamoyillari o'z aksini topgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, soliq hisobi buxgalteriya hisobining umumiy tamoyillari bilan birga o'zining maxsus tamoyillariga asoslangan holda olib boriladi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Shuningdek, soliq hisobi tamoyillarini soliqqa tortishning va buxgalteriya hisobining tamoyillariga asoslangan holda ishlab chiqish kerak. Shuni alohida qayd etish kerakki, umumiylik bilan bir qatorda, soliq hisobi tamoyillari buxgalteriya hisobi tamoyillaridan farq qiladi. Eng asosiy farq, agar buxgalteriya hisobi ikki yoqlama yozuv tamoyillariga asoslansa, soliq hisobi esa, bir tomonlama yozuvlarga asoslanadi.

E'tirof etilganlardan kelib chiqqan holda, soliq hisobi tamoyiliga quyidagicha ta'rif berildi.


Soliq hisobi tamoyillari – soliq hisobini yuritishning metodologiyasi asosini tashkil etuvchi qoidalar tizimidir.

Bu ta'rifga va yuqoridagilarga asoslangan holda soliq hisobining tamoyillariga quyidagilar kiradi: ikki yoqlama yozish, davriylik, soliqlar bo'yicha majburiyatlarni tan olish, daromat va xarajatlarni mos kelishi, konunlar bilan mustaxkamlanganlik tamoyillari.

Soliq hisobi predmeti va tamoyillarining o'ziga xosligi uning metodini ham aniqlashga imkon yaratadi. Bevosita metod va usullar yordamida soliq hisobining ob'ekti o'rganiladi. Bizning fikrimizcha, buxgalteriya hisobining, shu jumladan soliq hisobining metodi va usullarini aniqlashda bevosita ularning maqsadi, funktsiyasi, vazifasi hamda metodologiyasini hisobga olishimiz kerak. Umumiy qaraydigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunida buxgalteriya hisobining metodi va usullari alohida moddada sanab o'tilmagan hamda uning (metodning) ta'rifi berilmagan. Bundan kelib chiqib, «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunning yangi tahrirda buxgalteriya hisobining umumqabul qilingan metodi va usullari matn tartibda berilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Soliq hisobining metodi umumqabul qilingan buxgalteriya hisobining metodi va usullariga asoslanishdan tashqari, o'zining maxsus metod va usullariga ega.

Soliq hisobining metodi – xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning xo‘jalik operatsiyalari, aktivlari, soliqlar va majburiy to‘lovlar bo‘yicha majburiyatlar, daromad, xarajat va foyda ko‘rsatkichlarini aks ettiruvchi usullar majmuasidir. Shunday qilib, soliq hisobining tamoyillari va metodini belgilab oldik. Tamoyillar va metodga asoslangan holda soliq hisobini olib borish metodologiyasining nazariy muammolarini echishga harakat qilamiz. Soliq hisobotini olib borish metodikasi bo‘yicha ham mutaxassislarning fikrlari har xil.



2.2-rasm. Soliq hisobini tashkil etish variantlari

2. Soliq hisobining registrari.

Hisob registrari ikki guruhga bo‘linadi: analitik va sintetik. Soliq hisobining analitik registrari - buxgalteriya hisobi schyotlariga taqsimlanmagan (aks ettirilmagan) holda hisob davridagi soliq hisobi ma‘lumotlarini guruhlashtirilgan, tizimlashtirilgan yig‘ma shakllaridir. Analitik registrari soliq to‘lovchilar tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqiladi va hisob siyosatiga ilova qilinadi. Hisob registrari yuritish asosida soliq hisobini tashkil etish tizimi ishlab chiqiladi (2.3-rasm). Rossiya Federatsiyasi Soliqlar va yig‘imlar vazirligining 2001 yil 19 dekabrda «Soliq hisobini tizimi to‘g‘risida»gi axborot xabarnomasida soliq hisobining 51 ta registri mavjud bo‘lib, ularni shartli ravishda 5 ta guruhga bo‘lgan:

1. Oraliq hisob-kitob registrari;
2. Soliq hisobi birligi holatini hisobga oluvchi registrari;
3. Xo‘jalik operatsiyalarini hisobga oluvchi registrari;
4. Hisobot ma‘lumotlarini shakllantiruvchi registrari;
5. Tijorat bo‘lmagan korxonalarini maqsadli mablag‘larini hisobga oluvchi registrari.


Soliq to'lovchilar soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha soliqqa tortish bazasini aniqlash uchun zarur bo'lgan soliq hisobi ma'lumotlari bilan ta'minlashga kerak bo'ladigan registrlar mustaqil holda ishlab chiqadi hamda yuritiladi.

Bizning fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining tegishli boshqarmalari tomonidan yagona shakldagi registrlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Soliq hisobining ba'zi analitik hisob registrlari ishlab chiqilgan. Jumladan, mol-mulk solig'ini hisob-kitob registri jadvalda keltirilgan.

Ushbu registrning qulayligi shundan iboratki, bunda asosiy vositalar, nomoddiy aktivlarning qoldiq qiymatlari, ularning eskirish summalari har oy uchun ko'rsatiladi. Shuningdek mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyoz summalarini, soliqqa tortiladigan baza summalarini hisoblash osondir. Bu registrni amaliyotda qo'llash buxgalterlar va soliq xizmati xodimlariga qulayliklar yaratadi. Soliq hisobi registrlarining shakllarini keyingi mavzularda soliq turlari bo'yicha hisob metodologiyasini o'rganish jarayonida, aniq ma'lumotlarga asoslangan holda ko'rib chiqiladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar soliq hisobini tashkil etish, uni yuritishning metodikasi, foydalaniladigan ishchi schyotlar rejasi, registrlarni o'zgarishining soliq hisobi siyosatida aniq ko'rsatadilar.



Rasm. Soliq hisobini tashkil etish tizimi.

Tadqiqot natijasida biz tomonimizdan soliq hisobining ba'zi analitik hisob registrlari ishlab chiqildi. Jumladan, mol-mulk solig'ini hisob-kitob registri 3-jadval.

Ushbu registrning qulayligi shundan iboratki, bunda asosiy vositalar, nomoddiy aktivlarning qoldiq qiymatlari, ularning eskirish summalari har oy uchun ko'rsatiladi. Shuningdek mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyoz summalarini, soliqqa tortiladigan baza summalarini hisoblash osondir. Bu registrni amaliyotda qo'llash buxgalterlar va soliq xizmati xodimlariga qulayliklar yaratadi.

Soliq hisobi registrlarining shakllarini keyingi mavzularda soliq turlari bo'yicha hisob metodologiyasini o'rganish jarayonida, aniq ma'lumotlarga asoslangan holda ko'rib chiqiladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar soliq hisobini tashkil etish, uni yuritishning metodikasi, foydalaniladigan ishchi schyotlar rejasi, registrlarni o'zgarishining soliq hisobi siyosatida aniq ko'rsatadilar.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR.

1. Buxgalteriya hisobining tamoyillari.
2. Soliq hisobining tamoyillarining o'ziga xosligi nimalardan namoyon bo'ladi.
3. Metod nima?
4. Buxgalteriya hisobining metodi.
5. Soliq hisobining metodi.
6. Soliq hisobining registrlari.
7. Hisobning analitik registrlari.
8. Sintetik hisob registrlari.

Mavzu: SOLIQ HISOBI TIZIMI VA HISOB SIYOSATI

REJA.

1. Soliq siyosatini takomillashtirishda buxgalteriya hisobining o'rni.

2. Soliq hisobi siyosatining tarkibi.

Faylasuflardan biri «Agar hozirgi davr tarixsiz tushunarsiz bo'lsa, tarix hozirgi davrsiz dolzarb emasdir» degan ekan. Shu joyda Prezidentimizning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q»⁵ degan fikrlari juda o'rinlidir.

Shundan kelib chiqib, «soliq», «soliqqa tortishning tamoyillari», «soliq siyosati» tushunchalarini tahlil etishda tarixiy-iqtisodiy adabiyotlarga murojaat qilamiz.

Bu borada shotlandiyalik iqtisodchi va faylasuf Adam Smitning qarashlari katta ahamiyat kasb etadi. A.Smit o'zining «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risidagi tadqiqotlar» (1776 y.) nomli kitobida daromadlarni korxonaga kapitalidan va davlat mulkidan olinadigan daromad va soliqlarga bo'ladi. O'zining tadqiqotlarini davom ettirib, A.Smit soliqqa tortishning asosiy tamoyillarini birinchilar qatorida ishlab chiqadi. A.Smit o'zining asarlarida soliqqa tortishning quyidagi tamoyillari sifatida ishonchlilik, adolatlilik, teng taqsimlanganlilik va aniqlilik⁴ni qayd etadi.

Keyinchalik nemis iqtisodchisi A.Vagner soliqqa tortishni etarlilik va elastiklik tamoyillari bilan to'ldiradi.

A.Smitning shogirdi D.Rikardo o'zining «Siyosiy iqtisod va soliqqa tortishning boshlanishi» nomli risolasida soliq nazariyasiga renta va ish haqi nazariyalari bilan bevosita bog'liq munosabatlar deb qaraydi. U o'zini tadqiqotlari natijasi o'laroq, davlat

⁵ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – Toshkent. O'zbekiston 1999, 132 b.


⁴ Pushkareva V.M. Istoriya finansovoy mqslpi politiki nalogov: Uch. p. – M.: Finansq i statistika, 2005.

daromadlarining bosh manbai –kapitalistlarning foydasi degan xulosaga keladi. Bu nazariya hozirgi zamon qonunchiligida ham o‘z aksini topgan.

Nemis iqtisodchisi A.Vagner soliqqa tortishning 9 ta qoidasini o‘z asarlarida qayd etadi va ularni to‘rtta guruhga bo‘ladi. Birinchi guruhga soliqqa tortishning moliyaviy tamoyillarini kiritgan: 1) etarlilik; 2) elastiklik. Keyingi guruhda xalq xo‘jaligi tamoyillari: 3) soliqqa tortishning manbasini tanlash; 4) turli soliqlarni tizimda to‘g‘ri kombinatsiyasi. Uchinchi guruhda ahloq tamoyillari yoki adolatlilik tamoyillari: 5) soliqqa tortishning umumiyligi; 6) teng taqsimlanganligi. To‘rtinchi guruh ma‘muriy-texnik qoidalardan tashkil topgan: 7) soliqqa tortishning aniqligi; 8) soliq to‘lashning qulayligi; 9) undirish bilan bog‘liq xarajatlarni maksimal kamaytirish (1.1-rasm).

Biz soliq tarixiga murojaat qilar ekanmiz, Islom dunyosiga, islom huquqiga to‘xtalmasdan ilojimiz yo‘q. Islom dunyosida soliq qanday paydo bo‘lgan? Islom dunyosida soliq sadaqa va zakot sifatida shakllangan. Majburiy sadaqa sifatida qaralgan zakot, keyinchalik rasman soliqqa aylangan.

Keyinchalik Eronda o‘rta asr (XIII asr)dan boshlab zakot tamg‘a (mo‘g‘il) savdo va hunar solig‘i, mavashi (arab), yoki cho‘pon-begi (turk)-chorvachilik solig‘i kabi maxsus soliqlar bilan almashtirilgan.



1.1-Rasm. A. Vagnerning soliqqa tortish tamoyillarini guruhlashtirish.

Soliq turlari va uning tamoyillariga Islom huquqida ham katta e'tibor berilgan.

Islom huquqida soliqning quyidagi turlari e'tirof etilgan:

1. Zakot - hunar, savdo va chorvachilik solig'i;
2. Xiroj - hosil ulushi, natura holda;
3. Ushr - hosilning yoki imtiyozli erlardan daromadning 10 foizi miqdoridagi engillashtirilgan er o'lponi;
4. Juzya - faqat g'ayridinlardan pul hamda jon boshiga undirilgan o'lpon;
5. Hums - musulmon askarlarning g'ayridinlar bilan jihod paytida qo'lga tushirilgan harbiy o'lponning beshdan bir qismi.

Tarixdan bizga ma'lumki soliq siyosati va tamoyillari Amur Temur davrida takomillashgan. Uning hukumdorlik davrida soliqlar davlat va mahalliy soliqlariga bo'lingan. Bu soliq turlariga quyidagilarni misol keltirishimiz mumkin:

Xiroj - hosilning 1/10 qismidan 1/3 qismigacha undirilishi nazarda tutilgan er solig'i;

Molu - jihod – natura va pul shaklda undirilgan mulk solig'i;

Tanga - hunarmand va savdogarlardan olingan soliq;

Shuningdek, bu davrda bojxona to'lovi - «boj» ham joriy qilingan.

Shuni alohida qayd etishimiz kerakki, biz yuqorida ta'kidlab o'tgan A.Smit tomonidan ishlab chiqilgan soliqqa tortish tamoyillari, Amir Temur davrida ya'ni A.Smitdan 400 yil oldin ta'riflab berilgan va amaliyotga joriy qilingan. Amir Temur o'zining «Temur tuzuklari»da soliqqa tortish tamoyillari to'g'risida quyidagilarni yozganlar:

«Agar erlik fuqaro azaldan berib kelgan xiroj miqdoriga rozi bo'lsa, ularning roziligi bilan ish ko'rsinlar, aks holda (xirojni) tuzukka muvofiq yig'sinlar. Yana amr qildimki, xirojni ekindan olingan hosilga va erning umumdorligiga qarab yig'sinlar»⁵. Bu bilan Amir Temur soliqqa tortishning adolatlilik tamoyilini ko'zda tutgan. Amir Temur soliqqa tortish tamoyillari to'g'risida yana quyidagilarni yozadi: «Bulardan tashqari kuzgi, bahorgi, qishki va yozgi dehqonchilikdan olingan hosil raiyatning o'ziga bo'lsin. Lalmikor erlarni esa jariblarga bo'lsinlar, hisobga olingan bu erlardan [soliq olishda] uchdan bir va to'rtidan bir qoidasiga amal qilsinlar...

Amr qildimki, hosil pishib etilmasdan burun raiyatdan molu jihod olinmasin. Hosil etilishiga qarab, soliqni uchga bo'lib olsinlar. Agar raiyat soliq to'plovchi yubormasdan soliqni o'zi keltirib bersa, u holda u erga soliq to'plovchi yubormasinlar. Agarda oliq - soliq oluvchini yuborishga majbur bo'lsalar, ular soliqlarni buyruq berish va yaxshi so'z bilan olsinlar: kaltak, arqon ishlatib, ishni urish - so'kishgacha olib bormasinlar. Ularni bog'lab, zanjir bilan kishanlamasinlar»⁶. Bu bilan Amir Temur soliqqa tortishning aniqlik, qulaylik, tejamkorlik tamoyillariga amal qilishni amr qilganlar. Shuningdek, ular soliq bo'yicha imtiyozlarga ham alohida e'tibor berganlar:

«Yana amr etdimki, kimki biron sahroni obod qilsa, yoki koriz qursa, yo biron bog' ko'kartirsa, yohud biron xarob bo'lib yotgan erni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili [esa oliq soliq] qonun-qoidaga muvofiq xiroj yig'sinlar»⁷.

⁵ Temur tuzuklari. – Toshkent: Sharq, 2005, 120-b.

⁶ Temur tuzuklari. – Toshkent: Sharq, 2005, 121-b.

⁷ Temur tuzuklari. – Toshkent: Sharq, 2005, 122-b.

Yuqorida zikr etilgan, Amir Temur davrida va undan keyin amal qilgan soliqqa tortish tamoyillari hozirgi mustaqil O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligida ham o‘z aksini topgan. Bu tamoyillar hozir ham amaliyotga tadbiiq etilmoqda.

Buning isboti sifatida O‘zbekiston Respublikasining yangi Soliq kodeksida soliqqa tortish tamoyillari alohida moddada e’tirof etildi:

«5-modda. Soliq haqidagi qonun hujjatlarining tamoyillari

1. Soliq haqidagi qonun hujjatlari soliq solishning majburiyiligi, aniqliligi, adolatliligi, soliq tizimining yagonaliligi, soliq haqidagi qonun hujjatlari oshkoraliligi va soliq prezumtsiyasi tamoyillariga asoslanadi.

2. Soliq haqidagi qonun hujjatlarining qoidalari ushbu Kodeks bilan o‘rnatilgan tamoyillarga zid bo‘lishi mumkin emas».⁸

Soliq kodeksida qayd etilgan soliq solish tamoyillari 1.2-jadvalda aks etilgan.

Mamlakatimiz mustaqil bo‘lganidan keyin o‘zining soliq tizimiga ega bo‘ldi, O‘zbekiston iqtisodiyotiga mos bo‘lgan soliq siyosati ishlab chiqildi.

Soliq siyosati kategoriyasini o‘rganishda O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning asarlariga murojaat qilishimiz lozim. Prezidentimizning asarlarida soliq siyosati borasida quyidagi fikrlar mavjud: «Soliq siyosatining vazifasi, bir tomondan, byudjet daromadining barqaror safarbarligini ta‘minlashdan, ikkinchi tomondan, korxonalarni respublika uchun zarur bo‘lgan mahsulotlar ishlab–chiiqarishni ko‘paytirishga rag‘batlantirishdan iborat»⁹.

Soliq siyosatiga ta‘rif berishda yuqoridagi fikr asos qilinib olinishi maqsadga muvofiqdir.

Soliq siyosatiga olimlarimiz turlicha ta‘rif berishgan. Shulardan ba‘zilariga to‘xtalib o‘tamiz. Professor Q.Yahyoevning fikricha «Soliq siyosati davlatning soliq sohasidagi barcha tadbirlarni rejalashtirish, qonun, farmon va qarorlar ijrosini ta‘minlash hamda uni tashkil qilishdagi ishlab – chiiqilgan chora-tadbirlar yig‘indisidir».

T.Mirzaev, T.Toshmurodov, O.Abdullaevlar soliq siyosatiga quyidagicha ta‘rif berishgan: «Soliq siyosati – har bir mamlakatda ma‘lum vaqtda belgilangan kontseptsiya, mezon va vazifalar, davlat iqtisodiy va moliyaviy siyosatning asosiy tarkibi.

Davlatning soliqqa tortish uslublari, soliq turlari, ularni to‘lash tartiblarini takomillashtirishga bag‘ishlangan maqsadli tadbirlari, soliq siyosati iqtisodiy siyosatning umumlashgan ifodasi hisoblanadi».¹⁰

1.2-jadval

O‘zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Soliq kodeksida mavjud soliq solish tamoyillari¹¹

⁸ O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Soliq kodeksi, 5-modda. 2007

⁹ Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajagi sari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998. 52 b.

¹⁰ Mirzayev T., Toshmurodov T., Abdullayev O. Soliqlar va soliqqa tortish. Toshkent: Mehnat 2003. 17 b.

¹¹ Manba: O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksidan foydalanilgan holda muallif tomonidan tuzilgan.

Modda	Tamoyilning mazmuni	Manba
6-modda. Soliq solishning majburiylik tamoyili	<p>1. Soliqlar va majburiy to'lovlar ushbu Kodeks bilan o'rnatiladi, o'zgartiriladi yoki bekor qilinadi.</p> <p>2. Har bir shaxs ushbu Kodeks bilan o'rnatilgan soliqlar va majburiy to'lovlarni to'lashga majburdir.</p> <p>3. Hech kimga ushbu Kodeksda nazarda tutilmagan yoki uning normalari buzilgan holda o'rnatilgan soliqlar va majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilishi mumkin emas.</p>	Soliq kodeksi
7-modda. Soliq solishning aniqligi tamoyili	<p>1. Soliqlar va majburiy to'lovlar aniq belgilangan bo'lishi lozim. Soliq haqidagi qonun hujjatlari shunday tarzda tar'riflangan bo'lishi kerakki, unda har bir soliq to'lovchi qaysi soliqlar va majburiy to'lovlarni, qachon, qanday miqdorlarda va qay tartibda to'lashlari lozimligini aniq bilishligini anglatadi.</p> <p>2. Soliqlarni va majburiy to'lovlarni o'rnatishda, ushbu Kodeksda boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq to'lovchilar hamda soliqlarning va majburiy to'lovlarning elementlari belgilangan bo'lishi lozim.</p>	Soliq kodeksi
8-modda. Soliq solishning adolatlilik tamoyili	<p>1. Soliq solish umumiydir.</p> <p>2. Soliq imtiyozlarini o'rnatish ijtimoiy adolatlilik tamoyiliga muvofiq bo'lishi lozim. Yakka tartib xususiyatiga ega bo'lgan soliq imtiyozlarini berishga yo'l qo'yilmaydi.</p> <p>3. Soliqlar va majburiy to'lovlar kamsitish xususiyatiga ega bo'lishi va ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy va shu kabi boshqa mezonlardan kelib chiqqan holda turlicha qo'llanilishi mumkin emas.</p>	Soliq kodeksi
9-modda. Soliq tizimining yagonaliligi tamoyili	<p>1. Soliq tizimi barcha soliq to'lovchilarga nisbatan butun O'zbekiston Respublikasi hududida yagonadir.</p> <p>2. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududi doirasida tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) yoki moliyaviy mablag'larning erkin muomalada bo'lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo'yadigan soliqlar va majburiy to'lovlarni o'rnatishga yo'l qo'yilmaydi.</p>	Soliq kodeksi
10-modda. Soliq haqidagi qonun hujjatlari-ning oshkoriligi tamoyili	<p>Soliq solish masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e'lon qilinishi shart. Hammaning e'tibori uchun rasman e'lon qilinmagan normativ-huquqiy hujjatlar kuchga kiritilmagan hujjat sifatida huquqiy oqibatlar keltirib chiqarmaydi va soliq sohasidagi munosabatlarni tartibga solish uchun, ulardagi ko'rsatmalarni bajarilmaganligi uchun biron bir jazo choralarini qo'llashda asos bo'lib xizmat qilishi mumkin emas.</p>	Soliq kodeksi
11-modda. Soliq to'lovchining haqligi prezumtsiyasi-ning tamoyili	<p>Soliq haqidagi qonun hujjatlardagi qarama-qarshilik va noaniqliklar soliq to'lovchining foydasiga izohlanadi.</p>	Soliq kodeksi

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, soliq siyosatiga berilgan ta‘riflar va fikrlar turlicha.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati mamlakatimizda olib borilayotgan soliq siyosatini takomillashtirishga doimo alohida e‘tibor berib kelmoqda. Shu joyda birinchi Prezidentimiz I.Karimovning «Printsipial muhim ustuvor vazifalardan biri – soliq siyosatini yanada takomillashtirishdir»¹² degan fikrlari o‘rinlidir.

Bunga yana bir misol: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 sentyabrda bo‘lib o‘tgan majlisida 2009 yilga soliq siyosati kontseptsiyasi ishlab chiqish topshirildi. 2009 yilga soliq siyosati kontseptsiyasida O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov tomonidan belgilab berilgan iqtisodiy o‘shish ustuvorliklari va barqaror iqtisodiy o‘shish, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik, iqtisodiyot va uning alohida sohalari balansini ta‘minlash, xalqning turmush darajasini oshirish asos qilib olingan.

Ushbu kontseptsiyaning asosiy maqsadlari:

- soliq yukini pasaytirish;
- soliq solish tizimini, soliqlar va majburiy to‘lovlarni birxillashtirish va soddalashtirish;
- soliqqa doir tekshirishlar sonini yanada qisqartirish va soliq tekshiruvlari tizimiga o‘tish yo‘li bilan ma‘muriy tartibda soliq undirishni takomillashtirish.

Soliq siyosatini takomillashtirishda 2006 yil 29 iyunda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan va Senat tomonidan 2006 yil 25 avgustda ma‘qullangan «Soliq maslahati to‘g‘risida»gi qonun katta ahamiyat kasb etadi.

«Soliq maslahati» tushunchasi qonunning 3-moddasida quyidagi matnda aks ettirilgan: «Soliq maslahati soliq maslahatchilari tashkilotining yuridik va jismoniy shaxslarga (bundan buyon matnda mijozga (ishonch bildiruvchiga) deb yuritiladi) shartnoma asosida soliq maslahati bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish borasidagi faoliyatidir».¹⁵

Soliq maslahati bo‘yicha xizmatlarga quyidagilar kiradi: «mijozga (ishonch bildiruvchiga) soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlarni hisoblab chiqarish hamda to‘lash masalalari (bundan buyon matnda soliq solish masalalari deb yuritiladi) bo‘yicha maslahat berish;

soliq solish masalalari bo‘yicha hujjatlar tuzishda mijozga (ishonch bildiruvchiga) yordam ko‘rsatish;

sudda, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat qiluvchi organlarda soliq solish masalalari bo‘yicha mijoz (ishonch bildiruvchi) nomidan va uning topshirig‘iga binoan vakillik qilish.

Soliq maslahatchilari tashkilotlari yuqoridagilardan tashqari:

- buxgalteriya hisobini yo‘lga qo‘yish, tiklash va yuritish;
- moliyaviy hisobot tuzish;
- buxgalteriya hisobi, menejment va moliya-xo‘jalik faoliyatining boshqa masalalari bo‘yicha konsalting xizmatlarini ham ko‘rsatishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi «Soliq maslahati to‘g‘risida»gi qonunini qabul qilinishi munosabati bilan Soliq kodeksiga ham tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalarni kiritish talab qilinadi.

¹² Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Toshkent: O‘zbekiston, 2005, 88-b.

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasining «Soliq maslahati to‘g‘risida»gi Qonuni. Toshkent: 3-modda. 2006.

Soliq maslahatchisi o'z xizmat vazifasini yuqori darajada bajarishi uchun buxgalteriya hisobi, audit va moliyaviy tahlil metodologiyasini chuqur bilishi zarur. Bu sohalar bo'yicha bilimga ega bo'lgan soliq maslahatchisi mijozga soliq xarajatlarini optimallashtirish bo'yicha to'g'ri maslahatlar bera oladi.

Respublikamizda soliq siyosati yildan yilga takomillashib bormoqda.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2005 yil 28 yanvardagi qo'shma majlisida qo'yilgan vazifalar va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 7 yanvardagi «Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksini tayyorlash to'g'risida»gi F-2108-sonli Farmoyishining bajarilishi yuzasidan ishlab chiqilgan.

Yangi tahrirdagi soliq kodeksi Oliy majlis Senatining o'n ikkinchi yalpi majlisida (2007 yil 30 noyabrda) ma'qullandi.

Davlatning vujudga kelishi, soliqlarning paydo bo'lishi, soliq tizimining shakllanishi, soliq siyosatining takomillashishi buxgalteriya hisobini rivojlanishi va uning metodologiyasini takomillashuviga olib keldi. Va aksincha, Respublikamizda «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunni qabul qilinishi, buxgalteriya hisobi milliy standartlarining (BXMS) ishlab chiqilishi va amaliyotga tadbiq qilinishi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizom 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarorini qabul qilinishi (2003 yil 25 dekabrda) 567-sonli qarori asosida o'zgartirish bilan) soliq siyosatining yanada takomillashuviga sabab bo'ldi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga mos bo'lgan buxgalteriya hisobining huquqiy-me'yoriy asosi yaratildi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Bizning fikrimizcha, buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritishni tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar tizimini to'rtta pog'onaga bo'lish maqsadga muvofiq.

Bu jadvalda aks ettirilgan buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi hujjatlar tizimi bevosita soliq siyosatini takomillashtirishda alohida o'ringa egadir.

jadval


O'zbekiston respublikasida buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi huquqiy – me'yoriy hujjatlar tizimi

Pog'ona	Hujjatlar	Hujjatlarni qabul qilgan organlar
I pog'ona Qonuniy	qonunlar, kodekslar Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasini qarorlari	Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatalari, Prezident, Vazirlar Mahkamasini
II pog'ona Me'yoriy	Buxgalteriya hisobining Milliy standartlari	moliya va adliya vazirliklari
III pog'ona Uslubiy	nizomlar, yo'riqnomalar, uslubiy ko'rsatmalar	moliya vazirligi, Markaziy bank, Davlat soliq qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasi
IV pog'ona Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hisob siyosati	tashkiliy taqsimlovchi hujjatlar (buyruq ko'rsatmalar)	Korxonalar, konsalting firmalar

Soliq hisobi siyosatining tarkibi chizma ko‘rinishda berilgan.

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, soliq hisobi siyosatining tashkiliy qismida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda soliq hisobini yuritishning shakli, soliq hisobini olib borish kimga va qaysi bo‘linmaga yuklatilganligi, buxgalteriya (moliyaviy) hisob bilan soliq hisobining o‘zaro bog‘liqligi hamda hujjatlar aylanishini tashkil etish masalalari o‘z aksini topgan.

Soliq hisobi siyosatining texnik qismida soliq hisobining modeli uning registrlarining shakli, soliq hisobining ishchi schyotlar rejasi, soliq hisobi axborotlarini qayta ishlashning texnologiyasi hamda boshqa texnik masalalar bo‘lishi kerak.



Rasm. Soliq hisobi siyosatining tarkibi.

Soliq hisobi siyosatining uslubiy qismini shakllantirishda buxgalteriya (moliyaviy) va soliq hisobining o‘zaro bog‘liq hamda ularning farqli tomonlarini qiyosiy tahlil qilish zarur. Chunki, hisob siyosatining uslubiy tomonlari ko‘p jihatdan shunga bog‘liq. Shu asosda soliq hisobi tamoyillari metodlarini qo‘llash va ob‘ektlarni hisobga olish uslubiyoti ishlab chiqiladi.

Soliq hisobi siyosatining uslubiy qismining tarkibi 3.3-rasmda aks ettirilgan. Bu qismda daromad va xarajatlarni tasnifi, ularni tan olish, mulk va TMZ ni baholash usullari, asosiy vosita va nomoddiy aktivlarni amortizatsiya ajratmasini hisoblash metodlari, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha soliqqa tortish bazasini aniqlash va soliq hisobida aks ettirish metodikasi, soliq hisobotini tuzish va tegishli organlarga taqdim etish tartiblari ko‘rsatiladi.

Soliq hisobi siyosatining o‘ziga xos tomonlari quyidagi 3.1-jadvalda aks ettirilgan. Bunda har bir ob‘ektning me‘yoriy-huquqiy asosi hamda soliq hisobini tashkil etish va olib borish usullari e‘tirof etilgan.

Soliq hisobi siyosatining uslubiy qismida quyidagi elementlarga alohida e‘tibor berish kerak:

- aktivlar va majburiyatlarni baholash metodlariga;
- daromad va xarajatlarni soliq hisobida tan olishga;
- amortizatsiyani hisoblash metodlariga;
- amortizatsiya me‘yorlarini qo‘llashga;
- zahira (rezerv)ni tashkil etishga;
- soliqlarni hisoblash, to‘lash tartiblariga;
- soliqlar bo‘yicha avans to‘lovlarini amalga oshirish tartibiga;
- soliq hisobi analitik registrlari shakliga;
- soliq hisobida qo‘llanadigan ishchi schyotlar rejasiga va boshqalarga.

Bu elementlarni soliq hisobi siyosatining ob‘ekti sifatida qarash va metodologiyasining o‘ziga xos tomonlarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Soliq hisobi siyosati metodologiyasining o‘ziga xos tomonlari

T/r	Hisob siyosatining ob‘ekti	Soliq hisobini tashkil etish va olib borish usullari	Me‘yoriy asosi
1	Daromad va xarajat-larning tasnifi	Daromad va xarajatlarni guruhlash	Soliq kodeksi, Vazirlar Mahkamasining 1999y. 5 fevralda 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom
2	Daromad va xarajatlarni soliq hisobida tan olish	Daromad va xarajat turlari bo‘yicha	<i>BHMS</i>
3	Mulkni TMZ baholash qoidalari	O‘rtacha tannarx FIFO	<i>BHMS – 4, 5, 6, 7</i>
4	Asosiy vositalar va		<i>BHMS – 5, 7</i>

	nomoddiy aktivlar amortizatsiyasini hisoblash usullari va uning hisobi	To'g'ri chiziqli, tezlashtirilgan usullar	
5	Soliqlarni hisoblash va to'lash tartibi	Har oyda har chorakda	Soliq kodeksi
6	Soliqqa tortish maqsadi uchun rezerv tashkil etish	Rezerv tashkil etish, rezerv tashkil etmaslik	<i>Soliq kodeksi</i>
7	Soliq hisoboti va hisobot shakllari	Oylik har choraklik Yillik	Soliq kodeksi BHMS – 1, 3

Soliq hisobi siyosatining asosiy tarkibiy elementi bo'lib ishchi schyotlar rejasi hisoblanadi. Soliq hisobining ishchi schyotlar rejasi xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonida o'zining xususiyatlarini hisobga olgan holda mustaqil ravishda ishlab chiqiladi.

Ishchi schyotlar rejasini shunday shakllantirish kerakki, schyotlardan olinadigan ma'lumotlar asosida qo'shimcha hisob-kitoblarsiz soliq turlari bo'yicha hisobotlar tuzish imkoniyati yaratilishi lozim. Buning uchun schyotlar shunday tanlanishi kerakki, bu schyotlarda daromadlar, xarajatlar hisobga olinib, schyotlardagi ma'lumotlar asosida soliq turlari bo'yicha soliqqa tortish bazasini aniqlash imkoniyatini berishi zarur.

Soliq hisobi siyosatini shakllantirishda soliq turlarini o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Chunki soliqlarning har bir turi bo'yicha soliqqa tortish bazasini aniqlash usullari, hisob registrlari yuritish, ularni schyotlarda aks ettirish bir-biridan farq qiladi.

Biz yuqorida keltirilgan tarkibdagi tarkibdagi soliq hisobi siyosatini amaliyotda qo'llash, soliq hisobi axborotlaridan foydalanuvchilarni kerakli bo'lgan ma'lumotlar bilan to'la ta'minlash imkonini beradi.

Mavzu: DAROMAD (FOYDA) SOLIG'INING HISOBI

REJA.

- 1. Foyda solig'ini hisobi.**
- 2. Imtiyozlarning hisobi.**
- 3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hisobi.**
- 4. Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'i.**

Tanch so'zlar:

Daromadlar, harajatlar, foyda, doimiy farq, vaqtinchalik farq, amortizatsiya ajratmasi, amortizatsiya normasi, eksport imtiyoz, soliqlar bo'yicha imtiyoz, foyda solig'idan imtiyoz.

1. Foyda solig'ini hisobi.

Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga asoslangan iqtisodiyotni boshqarishda buxgalteriya hisobi alohida o'rin tutadi. Bu sharoitda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning moliyaviy buxgalteriya hisobini tashkil etish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonun, Soliq kodeksi,

buxgalteriya hisobining milliy standartlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 dekabrda 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizom, «Yuridik shaxslarga soliqlar, bojxona va majburiy to'lovlarni byudjetga to'lash bo'yicha berilgan imtiyozlarni rasmiylashtirish va buxgalterlik hisobida aks ettirish tartibi to'g'risida»gi Nizom (2005 yil 24 fevral) va boshqalar shular jumlasidandir.

Prezidentimizning keyingi farmon va qarorlari mamlakatimizda soliq siyosatini takomillashtirishga qaratilishi bilan birga buxgalteriya hisobi va jumladan soliqlar hisobini takomillashtirishda ham dasturiy amal bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatimizda yuqorida keltirilgan me'yoriy - huquqiy hujjatlar asosida moliyaviy, boshqaruv va soliq hisoblari tashkil qilinadi. Masalan: foyda solig'ining bazasini aniqlashda va hisobini yuritishda quyidagi BHMSdan foydalaniladi (4.1-jadvalga qarang).

4.1 – jadval

Foyda solig'ining bazasini aniqlash va hisobini yuritishda foydalaniladigan BHMS

T/r	BHMS raqami	BHMS nomi	BHMSni qabul qilgan sanasi va raqami
1		Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun kontseptual asos	14.08.1998 y. № 475
2	1	Hisob siyosati va moliyaviy hisobot	14.08.1998 y. № 474
3	2	Asosiy xo'jalik faoliyatidan tushgan daromadlar	26.08.1998 y. № 483
4	3	Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisoboti	27.08.1998 y. № 484
5	4	Tovar – moddiy zaxiralari	17.07.2006 y. № 1595
6	5	Asosiy vositalar	20.01.2004 y. № 1299
7	7	Nomoddiy aktivlar	27.06.2005 y. № 1485
8	12	Moliyaviy investitsiyalar hisobi	16.01.1999 y. № 596
9	21	Korxonalar moliya xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi	9.09.2002 y. № 103
10	23	Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish	27.06.2005 y. № 1484

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha byudjet bilan hisob-kitoblarni aks ettiruvchi schyotlar son jihatidan ko'p (4.2-jadvalga qarang).

Soliqlar va majburiy to'lovlarni moliyaviy buxgalteriya
hisobida aks ettiruvchi schyotlar.

T/r	Schyotning raqami	Schyotning nomi
1	0930	Vaqtinchalik farqlar bo'yicha muddati uzaytirilgan foyda solig'i
2	3210	Vaqtinchalik farqlar bo'yicha muddati uzaytirilgan foyda solig'i – joriy qismi
3	4510	Soliqlar bo'yicha bo'nak to'lovlar
4	6220	Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha muddati uzaytirilgan majburiyatlar – joriy qismiga
5	6400	Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik hisobi
6	6520	Ijtimoiy sug'urta bo'yicha to'lovlari
7	6530	Byudjetdan tashqari fondlarga to'lovlar
8	7210	Vaqtinchalik farqlar bo'yicha muddati uzaytirilgan foyda solig'i bo'yicha majburiyatlar
9	7220	Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha muddati uzaytirilgan majburiyatlar
10	8840	Maqsadli ishlatiladigan soliq imtiyozlari
11	9810	Foyda solig'i to'lash

Kiritilayotgan o'zgarishlar bevosita oldin qabul qilingan me'yoriy hujjatlarga, jumladan «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonun va Soliq kodeksiga tegishli o'zgartirishlar kiritilishini talab qiladi. Shuning uchun ham Prezidentimiz tomonidan davr talabiga javob beradigan yangi tahrirdagi Soliq kodeksini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.


Yuqoridagilarni hisobga olgan holda foyda solig'i hisobini ko'rib chiqamiz. Bu masalani yoritishda O'zbekiston Respublikasi «Farmsanoati DAK»ga qarashli bo'lgan «FARM GLASS» qo'shma korxonasi ma'lumotlaridan foydalaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining qarorlari bilan tasdiqlangan «Yuridik shaxslarning daromadi (foydasi)ga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va byudjetga to'lash tartibi to'g'risida»gi Yo'riqnomada «...soliq solinadigan foydaga ega bo'lgan yuridik shaxslar foyda solig'i to'lovchilar hisoblanadi» deb belgilab qo'yilgan.


Shundan kelib chiqib, foyda solig'ini soliqqa tortish bazasini aniqlashda daromad va xarajatlarni hisobga olish juda muhimdir.

Shuning uchun ham soliq hisobi metodologiyasida daromadlar va xarajatlarni hisobga olish tizimini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Daromad va xarajatlarni hisobga olish tizimi ishlab chiqildi va u 3.4, 3.5-rasmlarda ko'rsatigan. Bu hisob tizimi asosida daromadlar va xarajatlarning hisobini tashkil etish, soliqqa tortish bazasini aniq hisoblash imkoniyatini yaratadi hamda ishchi rejada ortiqcha-keraksiz schyotlarni bo'lishiga yo'l qo'ymaydi.



4.1-rasm. Daromadlarni hisobga olish tizimi



4.2-rasm. Xarajatlarni hisobga olish tizimi

2. Imtiyozlarning hisobi.

Foyda solig'ining hisobini o'rganishda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga soliq bo'yicha imtiyozlar berish masalalari muhim ahamiyatga egadir.

Soliq imtiyozlarini berish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan va qabul qilinmoqda. Bunga yaqqol misol bo'lib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 20 iyundagi PF-3620-sonli «Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 1 maydagi 74-sonli «Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalariga berilayotgan imtiyozlarning rag'batlantiruvchi rolini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori hisoblanadi.

Soliq qonunchiligiga asosan soliq imtiyozlaridan foydalanish, to'g'ri hisoblash va maqsadli yo'naltirishni nazorat qilish soliq xizmati organlari zimmasiga yuklatilgan.

Davlat soliq qo'mitasining tezkor ma'lumotlariga asosan soliq turlari bo'yicha imtiyozlarning eng ko'p miqdori, ya'ni 58,4%i qo'shilgan qiymat solig'iga, 15,4%i mol-mulk solig'iga, 7,8%i foyda solig'iga, 10,7%i er solig'iga, 7,7%i esa boshqa soliq turlariga to'g'ri kelmoqda.

Yuridik shaxslar tomonidan foydalanilgan soliq imtiyozlari miqdori byudjetga undirilgan soliq tushumiga nisbatan o'rtacha 15,0-15,7%ni tashkil qilmoqda.

2005 yil 24 fevralda tasdiqlangan «Yuridik shaxslarga soliqlar, bojxona va majburiy to'lovlar bo'yicha berilgan imtiyozlarni rasmiylashtirish va buxgalteriya hisobida aks ettirish tartibi to'g'risida»gi Nizom (yangi tahrirdagi)ga asosan soliq imtiyozlarining buxgalteriya hisobi olib boriladi. Bu Nizomga asosan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga soliqlar va bojxona imtiyozlari:

a) bo'shayotgan mablag'larni maqsadli vazifalarni bajarish uchun yo'naltirish sharti bilan;

b) bo'shayotgan mablag'larni maqsadli ishlatish nazarda tutilmagan holda beriladi.

Bo'shayotgan mablag'larni maqsadli vazifalarni bajarishga yo'naltirish sharti bilan soliqlar imtiyozlarining moliyaviy hisobi 8840-»Maqsadli ishlatiladigan soliq imtiyozlari» schyotida soliq imtiyozlarining turlari bo'yicha olib boriladi.

Soliqlar va bojxona imtiyozlarini hisoblab yozayotganda batafsil hisobga olish maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar schyotlar rejasidagi quyidagi schyotlarni ochadi:

a) byudjetga bo'nak to'lovlarni hisobga olish hisob varaqlari (4400) guruhida «Byudjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari – soliqlar va bojxona imtiyozlari (turlari bo'yicha)» schyoti;

b) byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzni hisobga olish hisobvaraqlari (6400) guruhida «Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz – soliqlar va bojxona imtiyozlari (turlar bo'yicha)» schyoti;

v) sug'urta bo'yicha va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvaraqlari (6500) guruhida «Davlat maqsadli jamg'armalarga to'lovlar – soliq imtiyozlari (turlar bo'yicha)» schyoti;

g) turli kreditorlardan qarzlarni hisobga olish hisob varaqlari (6900) guruhida «Import chog'ida QQS va aksizlar bo'yicha hisoblab yozilgan soliq imtiyozlari (turlar bo'yicha)» schyoti.

Beriladigan soliq imtiyozlarini xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan asoslanishi kerak. Tadqiq qilinayotgan «FARM GLASS» qo'shma korxonasida foyda solig'i bo'yicha imtiyoz sotilgan mahsulotning hajmida eksportga sotilgan mahsulotning ulushi uchun berilgan. Bu quyidagi 4.4-jadval ma'lumotlari bilan asoslangan.

Hisob-kitobdan ko‘rinib turibdiki, «FARM GLASS» qo‘shma korxonasida 2010 yilda sotilgan mahsulotlarning umumiy hajmi 16 437 607 ming so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, shundan eksportga sotilgan mahsulot 12 059 717 ming so‘mni tashkil qildi.

4.4-jadval

«FARM GLASS» QK ning 2010-2009 yillar eksport qilingan mahsulot hajmi
(ming so‘m)

T/r	Ko‘rsatkichlar	Foyda	
		2008 y	2009 y
1	Sotishdan sof tushum («Moliyaviy natijalar to‘g‘risida hisobot»ning 050-satri)	16437607,80	24686927
2	Shu jumladan, eksport mahsuloti (ish, xizmatlar)	12059717,70	19429906
3	Sotishning umumiy hajmida eksport mahsulotining ulushi	73,37	78,71

Eksportning hissasi 73,37 foiz bo‘lganligi bois, ushbu korxonada foyda solig‘i bo‘yicha 50 foiz imtiyozga ega. Shunga asosan 2010 yil uchun foyda solig‘i bo‘yicha soliq stavkasi ushbu korxonada uchun 6 foiz qilib belgilagan. 2009 yilda eksportning ulushi 78,71 foiz bo‘lib, 2006 yilga nisbatan 5,34 foizga oshgan.

Bu ma‘lumotlar foyda solig‘i bo‘yicha hisob-kitob tuzishda foydalanildi (4.5-jadval).

Ushbu 4.5-jadvalda keltirilgan hisob-kitobga asosan byudjetga 2010 yilda to‘lanadigan foyda solig‘i moliyaviy hisobda quyidagicha **aks** ettiriladi:

DEBET: schyot 9810 «Foyda solig‘i bo‘yicha xarajatlar» - 21778320 so‘m
KREDIT: schyot 6410 «Byudjetga foyda solig‘i bo‘yicha qarzlari» - 21778320 so‘m

**«FARM GLASS» qo'shma korxonaning 2008-2009 yillar uchun foyda solig'ining
HISOB-KITOB**

(so'm)

Ko'rsatkichlar	Satr raqami	Jami	
		2010	2009
Foyda solig'i to'lanishigacha moliyaviy natija (2-son «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot» shaklining 240-satridan)	010	29935,5	35373
«Xarajatlar tarkibi to'g'risida» Nizomning 1- ilovasiga ko'ra soliq solinadigan bazaga kiritiladigan xarajatlar	020	33318,5	521759
«Xarajatlar tarkibi to'g'risida» Nizomning 2- ilovasiga asosan mazkur hisobot davri uchun soliq solinadigan bazadan chiqarib tashlanmaydigan xarajatlar (9440-hisobvaraqda hisobga olingan xarajatlar)	030		
Mazkur hisobot davri uchun soliq solinadigan bazadan chiqarib tashlanadigan, ilgari qilingan xarajatlar (012-balansdan tashqari hisobvarag'i bo'yicha ma'lumotlar maxsus hisob-kitobi ilova qilinmoqda)	040		
Soliq solinadigan bazaga kiritiladigan xarajatlar (030-satr - 040-satr)	050		
Aktsiyalar va boshqa qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha dividendlar (foizlar)	060		
Soliq solinadigan foyda (010-satr + 020-satr + 050-satr + 060-satr)	070	362 972	55972
Amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq soliq solinadigan foydaning kamayishi (imtiyozlar bo'yicha ma'lumotnoma ilova qilinmoqda)	080		
Imtiyozlarni hisobga olganda soliq solinadigan foyda (080-satr - 090-satr)	090	362 972	557132
Hisobot yilidagi soliq solinadigan foydani kamaytiradigan zarar yoki zararining bir qismi summasi (Joriy hisobot yilidagi soliq solinadigan foydani kamaytiradigan o'tgan yil (o'tgan yillar) zarari yoki zararining bir qismi summasining hisob-kitobi ma'lumot-nomasining 090-satri)	100		
Foyda solig'ini hisoblab chiqarish uchun soliq solinadigan foyda (100-satr - 110-satr)	120		
Foyda solig'ining belgilangan stavkasi	100	12 %	10%
Foyda solig'ining tuzatilgan stavkasi (hisob-kitob ilova qilinmoqda)	110	6 %	5 %
Byudjetga to'lanadigan foyda solig'i summasi (120-satr x 130-satr / 100%) yoki (120-satr x 140-satr / 100%)	120	21778,3	27856,6
Byudjetga hisoblab yozildi	160		
Muddat bo'yicha qo'shimcha hisoblab yozildi	170		
Kamaytirishga	180		

2009 yil uchun ham yuqoridagidek buxgalteriya yozuvlar qilinadi. Foyda solig'i bo'yicha imtiyoz summasiga quyidagi buxgalteriya yozuvi tuziladi:

DEBET:	schyot 6410	«Byudjetga foyda solig'i bo'yicha qarzlار»	- 21778320 so'm
KREDIT:	schyot 8840	«Maqsadli foydalaniladigan soliq imtiyozlari»	- 21778320 so'm

3. Jismoniy shaxslarning olinadigan daromad solig'i hisobi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga ko'ra moliya yilida soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan respublika fukarolari, rezidentlar va norezidentlar jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni to'lovchilar bo'lib hisoblanadi. Bunda fukaro, norezidentning jami yillik daromadi soliq solinadigan daromad solig'ining ob'ekti bo'lib hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadiga soliq to'lovchi olishi lozim bo'lgan yoki tekinga olgan pul yohud boshqa mablaglari, shu jumladan:

mehnatga hak to'lash shaklida olingan daromadlar;

jismoniy shaxslarning mulkiy daromadi;

jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromadi kiradi.

Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadiga foizlar, dividendlar bo'yicha olingan daromad, mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan daromad kiradi.

Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan keladigan yalpi daromadiga tovarlar (ishlar, hizmatlar) realizatsiyasidan daromad olish maqsadida tavakkal qilib, o'z mulkiy javobgarligi ostida yakka tartibda amalga oshiradigan faoliyat natijasida olingan daromadi kiradi.

Qonun hujjatlarida ta'kiklanmagan boshqa faoliyatdan keladigan barcha tushumlar ham shu daromad turiga kiradi.

Jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyatidan keladigan yillik daromadidan soliq solinadigan daromatlarni aniqlash vaktida yalpi daromadni topish uchun qilingan harajatlar, majburiy to'lovlar, chikimlar va ajratmalar chegirib tashlanadi.

Jismoniy shaxslarning ish haklari, mukofat pullari va boshqa daromatlari summalaridan olinadigan soliqlar foizlarda belgilanadi. Soliq solish maqsadida eng kam ish hakining mikdori yil boshidan boshlab ortib boruvchi yakun tarzida hisoblanadi.

Mehnat hakidan ushlanadigan daromad solig'ining stavkalari quyidagicha.

eng kam ish hakining 6 barobarigacha bo'lganda 11 foiz;

6 barobaridan 10 barobarigacha - 17 foiz;

10 barobaridan yukorisidan 22 foiz.

Agar jismoniy shaxs asosiy ish joyidan tashkari boshqa joyda o'rindoshlik asosida ishlasa, daromad solig'i stavkasining eng yukori foizi, ya'ni 36 foizi qo'llaniladi.

Masalan: Samarqand viloyati bo'yicha 22 yanvar 200- yildagi «Viloyat hududida tadbirkorlik faoliyati bilan shugulanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliq mikdorini belgilash hakida»gi 26-K sonli karori (karorni bosh kismi 1- ilovada keltirilgan) quyidagilarini ko'zda tutadi.

Jismoniy shaxslarning ish hakidan olinadigan daromad solig'ining buxgalteriya hisobi 6411 «Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha byudjetga qarzdorlik» schyotida olib boriladi.

Jismoniy shaxslarning ish hakidan olinadigan daromad solig'ining buxgalteriya hisobida aks ettirilishini misollar yordamida karab chikamiz.

1. Savdo kompaniyasida sotuvchilarga 200000 so'm va ma'muriyat xodimlarga 32000 so'm mikdorida ish haki hisoblandi:

Debet 9414 «Mehnatga hak to'lash bo'yicha harajatlar» 200000 so'm

9421 «Mehnatga hak to'lash bo'yicha harajatlar ma'muriyat harajatlari» 32000 so'm

Kredit 6710 «Mehnat haki bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar» 232000 so'm

2. Kompaniya ishchi va hizmatchilarga hisoblangan ish haki hisobidan 12 foiz mikdorda daromad solig'i ushlandi. Bu ho'jalik jarayoni buxgalteriya hisobida quyidagi tartibda aks ettiriladi:

Debet 6411 «Mehnat haki bo'yicha xodimlar bilan hisob - kitoblar» 27840 so'm

Kredit 6411 «Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha byudjetga qarzdorlik» 27840 so'm

2000 yildan boshlab byudjetdan tashkari pensiya jamgarmasiga ajratiladigan ijtimoiy sugurta to'lovlarini hisoblash va to'lashni nazorat kilish vazifasi ham davlat soliq organlari zimmasiga yuklatildi. 2001 yil uchun ijtimoiy sugurta ajratmalari mikdori quyidagi mikdorda belgilangan (Vazirlar mahkamasining 2000 yil 26 dekabr 500-sonli karori).

byudjetdan tashkari nafaka fondiga – 37,3 foiz;

kasaba uyushumalar ittifoki Federatsiyasiga – 1,2 foiz;

bandlik fondiga – 1,5 foiz.

Bu to'lovlarni mulk shaklidan kat'iy nazar barcha yuridik shaxslar ish haki fondi hisobidan to'laydi va o'z ho'jalik harajatlari tarkibiga kiritadi.

Bundan tashkari fukarolar ish hakidan 2,5 foiz mikdorida sugurta to'lovi to'laydilar.

Ijtimoiy sugurta ajratmalarini hisoblash va Buxgalteriya hisobida aks ettirishni quyidagi misollar yordamida ko'rib chikamiz.

3. Kompaniya ishchi-hizmatchilariga hisoblangan ish haki hisobidan sugurta to'lovi ushlanganda:

Debet 6710 «Mehnat haki bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar» 5800 so'm

Kredit 6720 «Ijtimoiy sugurta bo'yicha to'lovlar» 5800 so'm

Ijtimoiy sugurta uchun 37,3 foizlik ajratma hisoblanganda:

Debet 9415 «Mehnat haki fondidan ajramalar» 74600 so'm

9422 «Mehnat haki fondidan ajramalar» 11936 so'm

Kredit 6520 «Ijtimoiy sugurta bo'yicha to'lovlar» 86536 so'm

5. Ish hakidan ushlangan daromad solig'i va ijtimoiy sugurta to'lovlariga ajratmalar hisob kitob schyotidan to'langanda:

Debet 6411 «Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha byudjetga qarzdorlik» 27840 so'm

6520 «Ijtimoiy sugurta bo'yicha to'lovlar»

(5800+86536) = 92336 92336 so'm

Kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» 120176 so'm

6. Kompaniya tomonidan xodimlarga ish haki berilganda:

Debet 6710 «Mehnat haki bo'yicha xodimlar bilan hisob - kitoblar»
198360 so'm

Kredit 5010 «Milliy valyutadagi pul mablaglari» 190300 so'm

7. O'z vaktida olinmagan ish haki summasi deponentga o'tkazilganda:

Debet 6710 «Mehnat haki bo'yicha xodimlar bilan

hisob - kitoblar» 8060 so'm

Kredit 6720 «Deponentlik mehnat haki» 8060 so'm

Yangi schyotlar rejasiga asosan, soliqlar bo'yicha byudjet bilan hisob-kitoblarning buxgalteriya hisobi 6410->byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorlik hisobi» schyotlarda olib boriladi. Bu schyotda bir soliq har bir soliq turiga alohida schyot ochiladi. Bunda korxonada o'zi mustaqil tarzda subschyot ochish huquqiga ega.

Jismoniy shaxslar ish haqidan olinadigan daromad solig'i ning buxgalteriya hisobi 6411->Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad

solig'i bo'yicha qarzdorlik» schyotida olib boriladi. Jismoniy shaxslar daromadidan soliqlarni ushlab qolish, byudjetga o'tkazish va ish haqi fondi hisobidan ajratmalar bilan bog'liq buxgalteriya provodkasi keltiriladi.

1. Ish haqi hisoblandi:

D-t 9414->Mehnatga haq to'lash bo'yicha harajatlar»

K-t 6710->Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar»

2. Ish haqidan daromad solig'i ushlandi:

D-t 6710->Mehnatga haq to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitob «

K-t 6411->Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha qarzdorlik»

3. Ish haqidan sug'urta to'lovi ushlandi:

D-t 6710->Mehnat haqi bo'yich axodimlar bilan hisob-kitoblar»

K-t 6520->Ijtimoiy sug'urta bo'yicha to'lovlar»

4. Ish haqidan ushlangan daromad solig'i va ijtimoiy sug'urta to'lovlariga ajratmalar hisob-kitob schyotidan to'landi

D-t 6411->Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha qarzdorlik»

6520->Ijtimoiy sug'urta bo'yicha to'lovlar

K-t 5010->Kassa»

5. Xodimlarga ish haqi berildi

D-t 6410->Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob kitob»

K-t 5010->Kassa»

6. Vaqtida olinmagan ish haqi deponentga o'tkazildi:

D-t 6710->Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar»

K-t 6720->Deponentlangan ish haqi»

Misol: Korxonada 2010 yil Dekabr oyi uchun ishchilariga ish haki hisobladi. Ishchilarning umumiy ish haki fondi 734700, ming so'm, bundan daromad solig'i 68788,80 ming so'm, 4 % pensiya fondiga 18367,50 ming so'm, 1% jamg'arilibboriladigan pensiya fondiga 7347,00 ming so'm. Shu bilan birga 25% li yagona ijtimoiy tulov 176328,00 mming so'mni tashkil qilgan.

Tulov kaydnomasiga ishchilarga 640196,70 ming so'm tulaishi kerak.

Ammo ayrim ishchilarning kelolmagani sababli 10196,40 ming so'mlik ish haki tarkatilmay koldi. Bu tarkatilmay kolgan ish haki bosh hisobchi tomonidan deponent kaydnomasi tuziladi va banka kaytarib yuboriladi.

4. Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'i

Soliq hisoblanganda:

Debit 9810-»Foydadan hisoblangan va to‘lanadigan soliq»

Kredit 6410-»Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik»

Bu soliq byudjetga to‘langanda:

Debit 6410-»Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik»

Kredit 5110-»Hisob-kitob schyoti».

Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig‘i korxonaning sof foydasidan hisoblanadi:

D-t 5110	K-t	D-t 6410	K-t	D-t 9810	K-t
	(2)		(1)		
	1571,04	1571,04	1571,04	1571,04	

1. Bu soliq hisoblanishi.

2. Soliqni byudjetga to‘lanishi.

6410- Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig‘i hisoblash va to‘lash tartibi			
Debet		Kredit	
5110 hisob raqamdan utikazish		9810-»Foydadan hisoblangan va to‘lanadigan soliq»	

Misol: Korxonada xizmat ko‘rsatishi natijasida yil yakunida soliq inspeksiyasiga yillik hisobot topshirishi natijasida korxonada sof foydasi 19638, ming so‘mni tashkil qilgan.

Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig‘ini hisoblandi:

$$\text{Inf.riv.sol} = 19638 \times 8\% = 1571,04 \text{ ming so‘m}$$

Byudjetga to‘lanishi kerak bo‘lgan Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig‘i summasiga va ushbu summaning byudjetga o‘tkazilishi schyotlarda quyidagicha aks ettiriladi:

STIR Soliq davri

Yuridik shaxsning to'liq nomi _____

Yuridik shaxsning joylashgan
eri _____

Pochta manzili _____

Telefon:
kodraqam O'lchov
birligi so'm

Balansida ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari bo'lmagan,
obodonlashtirish va ijtimoiy Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish
solig'i to'lovchilari uchun joriy to'lovlarni hisoblash bo'yicha
____ chorak uchun

MA'LUMOTNOMA

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa
Tahmin qilinayotgan sof foyda	010	1200 000 000
Obodonlashtirish va ijtimoiy Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'i stavkasi, %da	020	8
Hisoblab chiqarilgan obodonlashtirish va ijtimoiy Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'i summasi (010-satr h 020-satr)	030	96 000 000
Har oylik joriy to'lovlar summasi (030-satr / 3)	040	32 000 000

Mazkur Ma'lumotnomada ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchliligini tasdiqlayman:	Davlat soliq xizmati organining xodimi tomonidan to'ldiriladi
Rahbar STIR <input type="text"/> F. I. Sh. _____ Imzo _____	Ushbu Ma'lumotnoma (kerakligiga «V» belgisi qo'yilsin) qog'ozda <input type="checkbox"/> elektron ko'rinishida <input type="checkbox"/> shaxsan <input type="checkbox"/> pochta <input type="checkbox"/> elektron pochta orqali <input type="checkbox"/> a <input type="checkbox"/> orqali
Bosh buxgalter STIR <input type="text"/> F. I. Sh. _____ Imzo _____	
Sana <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> (kk/oo/yy)	Taqdim etilgan sana <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> (kk/oo/yy)
	F.I.Sh. _____ Imzo _____

STIR Soliq davri

Yuridik shaxsning to'liq nomi _____

Yuridik shaxsning joylashgan eri _____
Pochta manzili _____

Ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari:

(kerakligiga «V», ob'ekt yo'q
bo'lganda
«-» belgisi qo'yilsin)

sog'liqni saqlash ob'ektlari

halq ta'limi ob'ektlari
bolalar dam olish oromgohlariTelefon:
kodraqam O'lchov birligi so'mBalansida ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari bo'lgan, obodonlashtirish va ijtimoiy Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'i to'lovchilari uchun joriy to'lovlarni hisoblash bo'yicha __chorak uchun
MA'LUMOTNOMA

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa
Tahmin qilinayotgan sof foyda summasi	010	1 200 000 000
Ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini saqlab turish harajatlarining tahmin qilinayotgan summasi	020	96 000 000
Soliq to'lovchining balansida bo'lgan ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini saqlab turish harajatlariga to'g'ri keladigan yuridik shaxslarning foyda solig'ining hisoblangan summasi (020 satr h foyda solig'i stavkasi) / 100	030	96 000
Tahmin qilinayotgan soliq solish bazasi (010-satr + 020-satr - 030-satr)	040	1 295 904 000
Obodonlashtirish va ijtimoiy Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'i stavkasi, % da	050	8
Obodonlashtirish va ijtimoiy Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'ining hisoblangan summasi (040-satr h 050-satr)	060	103 672 320
Byudjetga to'lanadigan obodonlashtirish va ijtimoiy Obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish solig'i summasi (060-satr - 020-satr)	070	7 672 320
Har oylik joriy to'lovlar summasi (070-satr / 3)	080	2 557 440

Nazorat uchun savollar.

1. Foyda deganda nimani tushunasiz?
2. Daromad tarkibiga kiradigan elementlar?
3. Soliqqa tortish maqsadida xarajatlar tarkibiga nimalar kiradi?
4. Foyda solig'ini to'lovchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni ayting.
5. Foyda solig'i bo'yicha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga qanday imtiyozlar beriladi?
6. Eksportiyor korxonalariga foyda solig'i bo'yicha qanday imtiyozlar berilgan?
7. Vaqtinchalik farqlar schyotlarda qanday aks ettiriladi?
8. Foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar schyotlarda qanday aks ettiriladi?

Mavzu: QO'SHILGAN QIYMAT VA AKSIZ SOLIQLARNING HISOBI

REJA.

1. QQSni hisoblash tartibi va to'lanishi
2. Aksiz solig'i.

1. QQSni hisoblash tartibi va to'lanishi

Tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish, ishlarni bajarish va hizmat ko'rsatish, tovarlarni sotish Hamda O'zbekistosh hududiga tovarlarni import kilish jarayonida ular qiymatiga yangi qiymat ko'shiladi. Bu ko'shilgan qiymatning bir kismi soliq sifatida byudjet daromadiga olinadi.

Ko'shilgan qiymat solig'i (QQS) bo'yicha hisobda turgan yoki hisobda turishi shart bo'lgan tadbirkorlik faoliyati bilan shugulanuvchi yuridik shaxslar ko'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar hisoblanadi.

Ko'shilgan qiymat solig'ining ob'ekti bo'lib, tovarni (ishlarni, hizmatlarni) realizatsiya va import kilish oboroti hisoblanadi. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi bojxona qonunlarida belgilab ko'yilgan bojxona rejimiga muvofik Respublika hududiga import qilinadigan tovarlar, ishlar va hizmatlar QQS solinadigan ob'ektlardir. Bojxona qiymati import qilinadigan tovarlarga QQS ni hisoblash uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Realizatsiya bo'yicha soliq solinadigan oborot mikdori realizatsiya qilinadigan tovarlar, qiymati asosida, qo'llaniladigan narhlar va tariflardan kelib chikib, aksiz solig'ini hisobga olgan holda ularga QQSni kiritmasdan belgilanadi.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan oborot mikdoriga bojxona qiymati bilan bir katorda bojxona to'lovi mikdori va aksiz solig'i mikdori kiritiladi.

QQS 20 foiz stavka bo'yicha to'lanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tomonidan belgilanadigan ro'yxat bo'yicha ijtimoiy ahamiyatga molik ayrim ozik-ovkat tovarlari bo'yicha QQS 10 foiz stavkada to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksining 71 va 72-moddalarida QQS bo'yicha imtiyozlar berilgan.

Byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan QQS realizatsiya qilingan tovarlar uchun hisoblab chiqarilgan QQS summasi bilan qiymatni ishlab chiqarish va muomala harajatlariga quyiladigan tovarlar uchun to'lanishi lozim bo'lgan QQS summasi o'rtasidagi farq sifatida belgilanadi.

Import qilinadigan tovarlarga QQS summasi quyidagi formula bilan hisoblanadi:
 $SQQS = (St + Pip + As)/N$, bunda

St - import qilinayotgan tovarlarning bojxona qiymati;

Pip – bojxona to‘lovi miqdori;

As – aktsiz solig‘i miqdori;

N - QQS - stavkasi foiz hisobida.

Soliq to‘lovchi QQS bo‘yicha tasdiqlangan shakldagi hisob-kitoblarni ortib boruvchi yakun bilan soliq yuzasidan har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay va yil yakuni bo‘yicha yillik moliyaviy hisobotini topshirish muddatida takdim etadi.

Soliq to‘lovchi soliqni hisob-kitoblar takdim etiladigan kundan kechiktirmay tegishli davr(oy) uchun realizatsiya bo‘yicha amaldagi oborot asosida to‘laydi.

Tovarlarni import qilish chogida QQS bojxona deklaratsiyasi kabul qilinishidan oldin yoki bir vaktida to‘lanadi. Import qilinayotgan ishlar va xizmatlar bo‘yicha QQS ishlar va xizmatlar bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida hisoblab chiqariladi va import kiluvchi tomonidan yozilgan to‘lov kogozi asosida to‘lanadi.

QQSni to‘g‘ri hisoblash va o‘z vaktida to‘lash uchun javobgarlik soliq to‘lovchi (deklarant) zimmasiga yuklanadi.

QQSning buxgalteriya hisobi 6412 «QQSning byudjetga to‘lovlari bo‘yicha qarzdorlik» schyotida olib boriladi. Mazkur soliq turi bo‘yicha ho‘jalik jarayonlarini buxgalteriya hisobga olib borishni aniq misollar asosida ko‘rib chikamiz.

Ishlab chiqarish korxonasi 2001 yilning yanvar oyida quyidagi harajatlarni amalga oshiradi:

Mol etkazib beruvchilardan 280000 so‘mga hom ashyo va materiallar olindi, shundan QQS summasi 56000 so‘mni tashkil etgan.

Debet 1010 «Hom ashyo va materiallar» 280000 so‘m

4510 «Soliqlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlar» 6000 so‘m

Kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» 336000 so‘m

Ijara harajatlari uchun 20000 so‘m ko‘chirib berildi, shundan QQS 4000 so‘mni tashkil etadi.

Debet 2510 «Umumishlab-chiqarish harajatlari» 20000 so‘m

4510 «Soliqlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlar» 4000 so‘m

Kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» 24000 so‘m

3. Telefondan foydalanganlik uchun 5000 so‘m to‘chirib berildi, shundan QQS 1000 so‘mni tashkil etadi.

Debet 2510 «Umumishlab-chiqarish harajatlari» 5000 so‘m

4510 «Soliqlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlar» 1000 so‘m

Kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» 6000 so‘m

4. Kommunal xizmat harajatlari uchun 3000 so‘m berildi, shundan QQS 600 so‘mni tashkil etadi.

Debet 2510 «Umumishlab-chiqarish harajatlari» 3000 so‘m

4510 «Soliqlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlar» 600 so‘m

Kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» 3600 so‘m

Shaxsiy ho‘jalikdan yordamchi materiallar sotib olindi 8000 so‘m.

Debet 1090 «Boshqa materiallar» 8000 so‘m

Kredit 5010 «Milliy valyutadagi pul mablaglari» 8000 so‘m

Tayyor mahsulotlarni sotishdan 480000 so‘m daromad olindi.

$$QQS = \frac{480000/20}{100+20} = 80000 \text{ so‘m}$$

Hisoblangan QQS summasiga buxgalteriyada quyidagi buxgalteriya yozuvi kayd etiladi.

Debet 9010 «Tayyor mahsulotni sotishdan olingan daromadlar» 80000 so‘m

Kredit 6412 «QQS ning byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik» 80000 so‘m

Byudjetga to‘lanadigan yoki byudjetdan olinadigan summa o‘zaro Hisob-kitob yo‘li bilan aniqlanadi.

4510 schyot bo‘yicha $5600 + 4000 + 1000 + 600 = 61600$ so‘m

6412 schyot bo‘yicha 80000 so‘m, farq $80000 - 61600 = 18400$ so‘m byudjetga to‘langach quyidagi buxgalteriya yozuvi qilinadi.

Debet 6412 «QQS ning byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik» 18400 so‘m

Kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» 18400 so‘m

Material sotib olinganda QQS summasi:

Debet 4410-»Soliqlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari»

Kredit 6010-»Mol etkazib beruvchilarga to‘lanadigan schyotlar»

Hisobot ohirida QQS summasi 6410 hisobvaraqa debitiga o‘tkaziladi:

Debit 6410-»Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik»

Kredit 4410-»Soliqlar bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari»

Sotilgan mahsulot qiymatiga:

Debit-4010 «Haridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar»

Kredit 9010-»Realizatsiya» hisobvarag‘i

QQS byudjetga o‘tkazilganda:

Debit 6410-»Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzdorlik»

Kredit 5110-»Hisob-kitob»schyoti.

Ishlab chiqarish korxonasi 2010 yilning yanvar oyida quyidagi harajatlarni amalga oshirdi:

Mol etkazib beruvchilardan 280000 so‘mga hom-ashyo va materiallar olindi, shundan QQS summasi 56000 so‘mni tashkil etadi.

Debet 1010 «Hom ashyo va materiallar» 280000

4510 «Soliqlar buyicha bunak tulovlari» 56000 so‘m

Kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» 336000 so‘m

2.Tayyor mahsulotlarni sotishdan 480000 so‘m daromad olindi.

$$QQS = \frac{480000}{100+20} = 80000 \text{ so‘m}$$

Hisoblangan QQS summasiga buxgalteriyada quyidagi buxgalteriya yozuvi kayd etiladi.

Debit-4010 «Haridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar» 480000

Kredit 9010-»Realizatsiya» hisobvarag‘i 480000

Debet	Kredit	Σ
6410-3202	5110	24000 so‘m

QQSni hisoblash tartibi va to‘lanishi

D-t 6010	K-t	D-t 4410	K-t	D-t 6410	K-t
	(1)	56000	56000	(2)	56000
	56000			56000	
D-t 9010	K-t		D-t 4010	K-t	
		(3)	200000		
	200000		200000		
		D-t 5110	K-t		
	(4)	80000	(5)	80000	
	24000		24000		

1. Material sotib olinganda QQS summasi hisoblanishi
2. Hisobot ohiridagi QQS summasi 6410- hisobvaraqqa debitga o'tkazypdi.
3. Sotilgan mahsulot qiymati.
4. QQS byudjetga to'lanish.
5. Ko'rsatilgan hizmat uchun QQS hisoblandi.

STIR

--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

varaq

0	2
---	---

Qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa
1	2	3
Hisobot davrida hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) summasi (2-ilovaning 050-satri)	010	2 017 578 932,05
Avvalgi soliq davrida eksportga realizatsiya qilingan tovarlar bo'yicha tushum joriy soliq davrida kelib tushishi munosabati bilan hisobga olinadigan QQS summasi (3-ilovaning 050-satri)	020	-----
Hisobga olinadigan jami QQS summasi (010-satr + 020-satr)	030	2 017 578 932,05
Tovarlarni (ishlarni, hizmatlarni) realizatsiya qilish oboroti bo'yicha QQS summasi (4-ilovaning 010-satr 4-ustun)	040	2 242 969 077,40
Byudjetga to'lanadigan (kamaytiriladigan) QQS summasi (040-satr – 030-satr)	050	225 390 145,35

2. Aktsiz solig'i

Bozor iktisodiyoti sharoitida tovarlar inson ehtiyojini kondirishiga karab ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga inson ehtiyoji uchun har kuni iste'mol qiladigan tovarlardir. Ikkinchi guruh aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lmagan tovarlardir. Inson ehtiyoji uchun uncha zarur bo'lmagan tovarlarning ba'zi turlariga aktsiz solig'i belgilanadi. Bular jumlasiga arok, vino, konyak, pivo, tomaki mahsulotlari, neft

mahsulotlari, paxta yogi, gilam va gilam buyumlari, tabiiy gaz, hrustal buyumlar, mebel, oltin, video va audio texnika va boshqa tovarlar kiradi. Mulk shaklidan kat'iy nazar, bunday tovarlarni ishlab-chiqaruvchi va sotuvchi korxonalar, kompaniyalar aktsiz solig'i to'lovchilari bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqarilgan, aktsiz solig'i to'lanadigan tovarlar uchun ularni QQS hisobiga olinmagan hakikiy qiymati yoki tovarning fizik hajmi soliq solish ob'ekti hisoblanadi.

Aktsiz solig'i stavkalari tovarlarni jo'natish bahosiga nisbatan foizda belgilanadi.

Aktsiz solig'i byudjetga o'yning aktsiz to'lanadigan tovar realizatsiya qilingan o'n kunligi tugagandan keyin uch kundan kechiktirmay o'tkazilishi lozim. Soliq to'lovchi aktsiz solig'i bo'yicha hisob-kitoblarni soliq organiga har oyda hisobot oyidan keyingi o'yning 20-kunigacha takdim etadi.

Aktsiz to'lanadigan import tovarlar uchun bojxona hakidagi qonun hujatlariga asosan belgilangan boj qiymati soliq solish ob'ekti hisoblanadi. Aktsiz to'lanadigan import tovarlar uchun aktsiz solig'i bojxonada rasmiylashtirilgunga kadar yoki rasmiylashtirish paytida to'lanadi.

Aktsiz solig'i buxgalteriya hisobida 6413 «Aktsiz solig'ining byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzdorligi» schyotida aks ettiriladi.

Sotilgan mahsulotlarga to'g'ri keladigan aktsiz solig'i summasiga buxgalteriyadv quyidagi buxgalteriya yozuvi rasmiylashtiriladi.

Debet 9010 «Tayyor mahsulotni sotishdan olingan daromadlar»

200000 so'm

Kredit 6413 «Aktsiz solig'i» 200000 so'm

Belgilangan muddatda, aktsiz solig'i summasini korxonalar to'lov topshiriqnomasiga asosan byudjetga o'tkazadilar va bu Buxgalteriya hisobida ko'yidagicha aks ettiriladi:

Debet 6413 «Aktsiz solig'i» 200000 so'm

Kredit 5110 «Hisob-kitob schyoti» 200000 so'm

Korxonalar aktsiz solig'ining o'z vaktida o'tkazmasalar, qonun asosida tegishli moliyaviy jarima to'laydilar va mansabdor shaxslarga nisbatan qonuniy choralar ko'riladi.

Sotilgan mahsulot qiymatiga:

Debit 5110-»Hisob-kitob schyoti»

Kredit 9010-»Tayyor mahsulotni sotishdan olingan daromad»

Aktsiz solig'i qiymatiga :

Debet 9010-»Tayyor mahsulotni sotishdan olingan daromad»

Kredit 6410-»Byudjet to'lovlari bo'yicha qarzdorlik»

Aktsiz solig'i byudjetga o'tkazilganda:

Debet 6410-»Byudjet to'lovlari bo'yicha qarzdolik»

Kredit 5110-»Hisob-kitob»schyoti

D-t 5110	K-t	D-t 6410	K-t	D-t 9430	K-t
	10000	(2) 10000	10000	(1) 10000	

1. Aktsiz solig'i qiymati.

2. Aktsiz solig'i byudjetiga o'tkazildi.